



VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib bormoqda. 2024-yil 19-aprel, №16 (3078)

- 4** HODKORLAR
“TEMURBEKLAR
MAKTABI”DA
- 6** SHAXS KAMOLOTIDA MAFKURAVIY
TARBIYANING O'RNI
- 7** RAHBAR XODIMLARGA
BOSHQARUV MADANIYATIDA
QQ'YILADIGAN TALABLAR
- 10** “YANGI MO'YNOQ —
YANGI O'ZBEKISTON GAVHARI”
- 11** OSOYISHTA SARHAD —
BARCHAMIZNIKI!
- 12-13** XORAZMDA XALQARO
OLIMPIADA
- 18** MILLIY SPORTIMIZ XALQARO RIVOJI
DAVOM ETMOQDA



MARDLIK, MAHORATDA BIZNING KUCHIMIZ!



IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz
t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi
facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya



O'ZBEKISTON—TOJIKISTON: HAMKORLIK BARQARORLIKKA XIZMAT QILMOQDA

Markaziy Osiyo: barqaror rivojlanish
va yaxshi qo'shnichilik

Prezident Shavkat Mirziyoyevning so'nggi yillarda "Yangi O'zbekiston – yaxshi qo'shnichilik" tamoyili asosida mintaqaviy barqarorlikka erishish, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatni mustahkamlashga qaratilgan tashqi siyosati samara berayotganini dunyo ahli e'tirof etmoqda. Xususan, taqdiri, tarixi mushtarak o'zbek va tojik xalqlari, O'zbekiston va Tojikiston davlatlari o'rtasidagi ishonchli, yaqin rishta qayta tiklandi. O'zbekiston yetakchisining 2018-yil 9-10-mart kunlari Dushanbe shahriga, Tojikiston rahbarining o'sha yil avgust oyida Toshkentga davlat tashrifi o'zaro aloqalar sifatini yangi bosqichga ko'tarish yo'lida dadil qadam bo'ldi.

Ushbu tashriflar asnosida muhim tarixiy hujjatlar imzolana boshlagan davrdan beri, allaqachon, 6 yil vaqt o'tdi. Bugun O'zbekiston va Tojikiston sherikligi, do'stona aloqalari qay darajada rivojlanmoqda? O'zaro munosabat istiqboli yana qaysi sohalarni qamrab olishi mumkin? Shu va boshqa savollarimizga Tojikiston Respublikasining O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Abdujabbor Rahmonzoda javob berdi.

– Mammuniyat ila qayd etish mumkinki, ikki qo'shni davlat hamkorligi, robitalar so'nggi 6 yilda barcha sohalarida mustahkamlanmoqda. Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon va O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oqilona siyosati natijasida chegaralarimiz bir-birimiz uchun ochildi, rishtalar strategik munosabat maqomidan abadiy do'stona darajaga ko'tarildi. Yetakchilar ko'p marta uchrashib, istiqbolli hamkorlikni zamon talabidan kelib chiqqan holda yanada kengaytirish yo'llarini muhokama qilib, muhim shartnomalar imzoladilarki, jarayon samarasi barcha jabhalarda namoyon. Ramziy ma'noda olti yil oldin o'tqazilgan do'stlik daraxti meva bermoqda.

Davlatlararo munosabat 192 shartnoma, 100 dan ziyod kelishuv va bitim asosida rivojlanyapti. Hujjatlarning aksariyati Shavkat Mirziyoyev davlat tepasiga kelganidan keyin imzolangan. Ayniqsa, savdo sohasidagi yutuqlarimiz ulkan. Bugungi kunda tovar ayirboshlash qiymati 700 million dollardan oshgan. Eng muhimi, bu ko'rsatkich hech bir tomonni qoniqtirmaydi. Ya'ni ayni payt mahsulot va xizmat ayirboshlashni yiliga 1 milliard dollarga yetkazish imkoni mavjud. Bu borada Tojikiston va O'zbekiston Investitsiya fondi tashkil etilgani ayni muddao. Jamg'arma ko'magida qo'shma korxonalar ochilib, ikki mamlakat ishbiarmonlari har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda.

Qayd etish joiz, qo'shni davlat sarmoyasi ishtirokida mamlakatimizdagi

bir necha korxona faoliyatini tiklab oldi. O'zbekistonning ayrim korxonalari "TALKO" kompaniyasi korxonalarini qayta tiklash bo'yicha loyiha taqdim etdi. Endilikda mamlakatimiz investitsiyasi ishtirokida Tojikistonda 90 dan ziyod qo'shma korxona faoliyat olib bormoqda, ishlab chiqarilgan mahsulot chet elga eksport qilinmoqda. Tojikistonda yerosti boyliklari, kon juda ko'p. O'zbekiston mana shu zaxiradan, ayniqsa ko'mir konlaridan o'zaro manfaat ko'rish uchun samarali ish olib bormoqda. Agar Samarqand – Panjakent temir yo'li foydalanishga topshirilsa, naf ikki-uch hissa ortishi mumkin.

Transport sohasidagi hamkorlik ham tobora rivojlanmoqda. Ayniqsa, tranzit yo'llardan foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Yuk tashish hajmi ikki barobar ortdi. Soliq va boj to'lovi yaqin kelajakda keskin kamayishi nazarda tutilyapti.

Ikki davlat rahbarlari tashabbusi bilan Zarafshon daryosida ikkita elektr stansiyasi qurish rejalashtirilgan, hozir loyihalash ustida ish qizg'in. May oyida xalqaro tender o'tkaziladi. Shuningdek, energetika vazirliklari elektr energiyasi tranziti bo'yicha kelishuvga erishdi. Xullas, suv va energetika kabi dolzarb masalalar bo'yicha xalqlarimiz manfaatini ko'zlagan hamkorlik jadal rivojlanmoqda.

Qishloq xo'jaligi aloqalari ham samara bermoqda. Hisor shahrida 20 gektar maydonda yaratilgan "Do'stlik bog'i" fikrimizning yaqqol misoli. Majmuani nihol bilan ta'minlash va agrolaboratoriya ishlari O'zbekiston tomoni zimmasida.

So'g'd viloyati markazida qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish markazi tashkil etilgan. O'zbek olimlari va mutaxassislari irrigatsiya, chorvachilik, paxtachilik, pillachilik, uzumchilik, urug'chilik bo'yicha tajriba, ilmiy yutuqlar yuzasidan maslahat berib kelmoqda. 2024-yil fevral oyida markazning ilk yig'ilishi bo'lib o'tdi. Tojik dehqonlari O'zbekistondan olib kelingan turli xil minerallar yordamida mo'l hosil olmoqda.

Sayyohlik hamkorlikning muhim sohasiga aylandi. Har yili Toshkent shahrida O'zbekistonning turistik imkoniyatiga bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil etiladi. Hozirgacha Tojikistonning 20 dan ortiq kompaniyasi tibbiyot, tog' va ziyorat turizmi bo'yicha bitim imzolagan. Masalan, birgina 2023-yilda bir yarim million tojikistonlik sayyoh O'zbekistonning turli mintaqalariga, 800 mingdan ziyod o'zbekistonlik sayyoh Tojikistonga tashrif buyurib, yaxshi taassurot bilan uyiga qaytgan.

Parlamentlararo munosabat ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. 2023-yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva ikki bor Dushanbe shahriga tashrif buyurib, Tojikiston Oliy Majlisi Milliy Majlisi Raisi Rustam Emomali bilan uchrashdi. Tojikiston Oliy Majlisi Vakillar Majlisi Raisi Mahmudtoir Zokirzoda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan MDH mamlakatlari parlamentlari yig'ilishida ishtirok etdi. Parlamentlar raislari muvoynlari rahbarligida do'stlik guruhi tuzilgan. Shu yil 11-12-mart kunlari Tojikiston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlikka oid hukumatlararo komissiyaning 11-yig'ilishi Dushanbe shahrida ikki mamlakat Bosh vazirlari ishtirokida o'tdi.

– Elchi janoblari, aytish mumkinki, madaniyat, adabiyot, umuman, gumanitar sohadagi aloqalarimiz ham sezilarli darajada rivojlanmoqda. Zero tarixan ajdodlarimiz bugungi mavjud hamkorlik poydevorini ming yillar oldin mustahkam qo'yg'alar. Biz esa ulkan merosning vorislarimiz. Shunday emasmiz?

– Darhaqiqat, oxirgi olti yil biz uchun burilish davri bo'ldi. Masalan, ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasidagi aniq va tabiatshunoslik fanlari bo'yicha yaqin hamkorlik samarasi o'laroq, Tojikistonning kimyo sohasi olimlari Navoiy kimyo korxonalari, laboratoriyalarida tadqiqot olib boryapti. Fizik olimlarimiz – Prezident huzuridagi Strategik tadqiqotlar markazi mutaxassislari Toshkentdagi Markaziy Osiyo xalqaro instituti va boshqa sohaviy ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan izchil izlanishlarni yo'lga qo'ygan. Rektorlar forumi doirasida uchrashuv, konferensiyalar o'tkazish an'anaga aylangan.

O'tgan yil O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri bilan bir necha nufuzli oliy ta'lim muassasasi rektori Dushanbe shahriga tashrif buyurdi. Ikki kun davom etgan muloqot asnosida hamkorlik istiqbolining turli jihatlarini mufassal muhokama qilindi. Yaqin kunlarda shunday uchrashuv Toshkent shahrida o'tkazilishi nazarda tutilgan. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari munosabati ko'lami kengaymoqda. Joriy yil boshida Dushanbe shahridagi 15-umumta'lim muassasasi direktorlari Toshkent shahriga kelib, tajriba almashib qaytdi.

San'at sohasidagi aloqalar ham tobora rivojlanmoqda. Gastrollar tashkil etish

an'anasi tiklandi. Tojikistonning qator teatrlari artistlari Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Farg'ona shaharlarida bo'lib, ijod namunalarini o'zbek tomoshabinlariga taqdim etdi. Ayni vaqt O'zbekiston teatr ijodkorlari Tojikistonga tashrif buyurdi. Bu tadbirlar xalqlarimiz – o'zbek va tojik teatr muxlislari bir-birlariga mushtaq bo'lib qolganini namoyish etdi. Toshkent shahrida taniqli xonanda Daler Nazarov hamda Xurshed Ibrohimzoda konserti san'at shaydolari tomonidan qizg'in qabul qilindi.

Tojikiston Rassomlar ittifoqi raisi N. Homidova rahbarligida mo'yqalam ustalarimiz asarlari Toshkent va Samarqand shaharlarida tomoshabinlar hukmiga havola etildi. Endi Dushanbe o'zbek rassomlariga muntazir.

Bastakorlarimiz hamkorligi ham zamonga mos rivojlanmoqda. Tojik bastakorlari asarlari Toshkent konservatoriyasida, o'zbek bastakorlari asarlari esa Tojikistonning san'at sohasidagi ta'lim muassasalarida ijro etilmoqda. O'zbekistonning taniqli bastakorlar Mustafo Bafoyev, Habibullo Rahimov va boshqalar shu yo'nalishda ijod qilib, yuksak natijaga erishgan.

"Alisher Navoiy" baleti (*musiqasi muallifi Mustafo Bafoyev*)da tojik va o'zbek xalqlari do'stligi kuy orqali go'zal talqin qilingan. M. Bafoyev Dushanbedagi S. Ayniy nomli opera va balet teatri uchun "Ibn Sino" asariga musiqa yozib berdi.

Aynan shu ruhdagi hamkorlik viloyatlararo madaniy aloqada ham ifodasini topgan. So'g'd viloyati san'atkorlari Farg'onada, Mustaqillik va Navro'z shodiyonalarida qatnashdi, Tursunzoda, Hisor, Shahrinav tumanlaridagi tantanalarga qo'shni Surxondaryodan kelgan san'atkorlar shukuh bag'ishladi. Tojikistonning Xatloni va O'zbekistonning Surxondaryo viloyati madaniyat va san'at vakillari xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik rishtasini mustahkamlashga ulkan hissa qo'shmoqda.

Mammuniyat bilan qayd etish joiz, tojik tilida ijod qiluvchi 6 nafar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Tojikiston Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilindi. Chust tumanida Sotib Ulug'zoda, Toshkent shahrida Mirzo Tursunzoda hamda Jonibek Quvnoq, Boysun tumanida Sattor Tursun yubileylari uyushqoqlik bilan o'tkazildi. Dushanbe shahrida atoqli o'zbek shoiri Erkin Vohidov ijodiga bag'ishlangan turli tadbirlar tashkil etildi. Bu uchrashuvlar, do'stlar muloqoti, aminmizki, mavjud adabiy aloqalarni yanada mustahkamlaydi. Adabiy do'stlik esa xalqlar do'stligiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi olti yil mobaynida tojik va o'zbek xalqlari o'rtasidagi birodarlik ko'lami yangi bosqichga chiqdi. Eng asosiysi, bu aloqalar Markaziy Osiyodagi barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.


Shoqahhor SALIMOV suhbatlashdi.
(O'za)



O'zbekiston–Hindiston o'rtasidagi do'stlik aloqalari tarixan uzoq yillarga borib taqaladi. Ushbu mamlakat bilan madaniy va ijodiy hamkorliklar qatorida so'nggi yillarda harbiy sohada ham mustahkam aloqalar o'rnatilayotgani, bilim va tajribalar almashinilayotgani quvonarli holdir.



O'ZBEKISTON–HINDISTON: “Do'stlik – 2024” doirasidagi samarali aloqalar



Bahrom ABDURAHIMOV

Hindiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Quruqlikdagi qo'shinlari shtab boshlig'i general Manoj Pande rahbarligidagi delegatsiyaning O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga tashrifida ham bir qator ezgu maqsadlar mujassamlashgan.

Delegatsiya a'zolarini mudofaa vazirining birinchi o'rinbosari – Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig'i general-mayor Shuxrat Xalmuxamedov qabul qildi. Uchrashuv davomida tomonlar o'zbek-hind hamkorligi istiqbollari, shuningdek, “Termiz” poligonida boshlangan qo'shma harbiy o'quv mashg'ulotlarini muhokama qildilar. O'zaro muloqotlardan so'ng

mehmonlar Qurolli Kuchlar davlat muzeyiga tashrif buyurib, mamlakatimizning boy tarixi, ilmiy merosi, alloma va sarkardalarimizning faoliyati, Ikkinchi jahon urushida xalqimizning bitmas-tuganmas jasoratini o'zida aks ettirgan eksponatlar bilan yaqindan tanishdi.

Uchrashuvning ikkinchi kunida delegatsiya a'zolari Lal Bahadur Shastri yodgorligi, shuningdek “G'alaba bog'i” yodgorlik majmuasi hududidagi “Matonat madhiyasi” monumenti poyiga gulchambarlar qo'ydi.

Kunning ikkinchi qismida mehmonlar Mudofaa sanoati davlat qo'mitasi qoshidagi “Innovatsiya

texnologiyalari markazi” hamda Qurolli Kuchlar akademiyasida bo'lib, u yerda yaratilgan shart-sharoitlar, ta'lim va texnologiyalar, hudud infratuzilmalari bilan tanishdi.

O'sha kuni akademiyada O'zbekiston va Hindiston mudofaa sohasidagi hamkorlik doirasida tashkil etilgan maxsus xona – Axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik laboratoriya majmuasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Erkin muloqot jarayonida bu yerda olib boriladigan kelgusi ishlar va rejalar haqida batafsil ma'lumot berildi.

Rasmiy tashrifning uchinchi kuni ko'hna va navqiron Samarqand safari bilan boshlandi. Registon maydoni,

Go'ri Amir, Bibi Xonim singari maqbaralarning betakror jozibasi mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi. Xususan, general Manoj Pande o'tgan yillar davomida yurtimizga bir necha marotaba tashrif buyurgani, har gal kelganida yangi-yangi tasavvurlarga ega bo'layotganini faxr bilan ta'kidlab o'tdi.

Delegatsiya a'zolari tashrifning to'rtinchi kuni “Termiz” dala-o'quv maydonida bo'lib, u yerda o'tkazilayotgan “Do'stlik – 2024” o'zbek-hind o'quvlari jarayonlarini kuzatib borishdi.

Kapitan Bobur ELMURODOV,
“Vatanparvar”





IJODKORLAR “TEMURBEKLAR MAKTABI”DA

Qurolli Kuchlarimizga malakali kadrlar tayyorlashda Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyining ham o'ziga xos o'rnini bor. Bu ta'lim maskanida tahsil olayotgan o'quvchilarni vatanparvarlik va yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ona yurt osoyishtaligi yo'lida mardonavor xizmat qiladigan o'g'lonlar sifatida shakllantirish ko'zlangan asosiy maqsadlardan biridir.



Kapitan Bekzod Normurodov

Yaqinda bir guruh ijodkorlarning litseyga qilgan tashrifi va ular ishtirokida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy kecha ham yoshlar uchun shu jihati bilan qimmatli ahamiyat kasb etdi.

Shu kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari, shoir Minhojiddin Mirzo, O'zbekiston xalq shoirlari – Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi Iqbol Mirzo, Mahmud Toir, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimlari shoirlar – To'lqin Hayit, Bobur Bobomurod, shoira Zulfiya Mo'minova, kinorejissyor Hilol Nasimov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar – Tohir Saidov va Mehriddin Rahmatov, shoira Farog'at Xudoyqulova hamda Prezident administratsiyasi mas'ul xodimi Saidxon Saidolimov tadbirning aziz mehmonlari bo'lishdi.

Dastlab mehmonlar "Temurbeklar maktabi" faoliyati bilan yaqindan tanishtirildi. Albatta, bu yerdagi shart-sharoit, ta'lim samaradorligini

yuksaltirish maqsadida barcha zamonaviy o'quv vositalari bilan ta'minlangan mashg'ulot xonalari, kutubxona, shinam yotoqxonalar hech bir ijodkorni befarq qoldirmadi.

Litsey bo'ylab qilingan sayohatdan so'ng mehmonlar anjumanlar zalida jam bo'lib o'quvchi-yoshlar bilan uchrashdi.

Uchrashuv avvalida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning harbiylar bilan uchrashuvlari aks ettirilgan videorolik namoyish etildi. Shundan so'ng mudofaa vazirining o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev so'zga chiqib, Qurolli Kuchlarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar haqida gapirdi. Shunday islohotlar sabab harbiy kasb nufuzi oshganini, armiya va xalq yakdilligi ta'minlanganini mamnuniyat bilan e'tirof etdi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov esa inson kamolotida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning ahamiyati xususida batafsil

so'zladi. Zotan, ma'naviyatga qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligiga, uning milliy manfaatlariga, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi intilishlariga jiddiy to'siq bo'lib, jamiyatni inqirozga olib kelishini ta'kidladi. Bunday tahdidlarga qarshi kitobxonlik va uni targ'ib qilish ham yaxshi samara berishini aytib o'tdi. Markaz tomonidan akademik litseyga taqdim qilingan 300 dona badiiy kitob jamlanmasi aytilgan fikrlarga hamohang bo'ldi.

Har bir shoirming o'z ijod yo'li, yo'nalishi bor. O'zining betakror she'rlari orqali insonlar qalbiga ma'naviy-ruhiy quvvat ulashib kelayotgan shoirlar – Iqbol Mirzo, To'lqin Hayit, Mahmud Toir, Minhojiddin Mirzo, Zulfiya Mo'minova hamda Bobur Bobomurodni yurtodoshlarimiz o'ziga xos yo'nalishga, ijod yo'lga ega zahmatkash ijodkorlar sifatida yaxshi taniydi. Ularning she'rlari xalqona tilda yozilgani uchun yosh-u qarining yuragidan joy olib ulgurgan. Eng muhimi, ular kirib borgan har qanday davra barchaga

unutilmas lahzalarni tuhfa etadi. Bu gal ham shunday bo'ldi. Ijodkorlarning Vatan va vatanparvarlikni targ'ib qiluvchi jozibador hamda chuqur falsafaga ega ta'sirchan misralari, inja tuyg'ular haqidagi go'zal fikrlari tomoshabinlarning ko'nglidan joy oldi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar – kino va teatr aktyorlari Tohir Saidov O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning "Sohibqiron" tarixiy dramasi Amir Temur, Mehriddin Rahmatov esa O'zbek milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan Sulton Jaloliddin monologlarini obrazga kirib, ijro etganda zal gurduros qarsaklarga to'ldi.

Kechada o'quvchilar ham faol ishtirok etishdi. Ular "Mard askarga sovg'a" turkumida chop etilgan kitoblardan o'rin olgan she'rlardan namunalar o'qidi.

Harbiy orkestr ijrosidagi kuy-qo'shiqlar esa dillarni yana-da xushnud etdi.

**Podpolkovnik
Gulnora HOJIMURODOVA**

ISTAGAN VAQT TOPADI, ISTAMAGAN BAHONA



Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoni” asarida shunday gap bor: Agar sendan kurash tushish ilmimi yoki amalmi, deb so‘rasalar, javob berib aytginki, kurash amal bilan zich bog‘liq ilmdir. Koshifiy so‘zini o‘tgan ulug‘larning gaplari bilan quvvatlaydi: Bilimsiz kuch adolati yo‘q shohdir, quvvati yo‘q ilm adolatli, lekin lashkari yo‘q shoh kabidir. Agar odamda bilim bilan kuch o‘zaro muvofiq kelsa, uning uchun muvaffaqiyatga erishish yo‘li ochiqdir.

Shu ma’noda MARDLIK katta ruhiy quvvatni, ezgu xulq-atvorni, yaxshilik qilishni, hamisha or-nomus va sharaf himoyasida bo‘lishni taqozo etadi. Shuning uchun ham MARDlar saxovatpesha, oliyhimmat, jasur bo‘ladilar.

Biz yaqinda Mudofaa vazirligi Merganlar tayyorlash markazida bo‘lganimizda ana shu sifatlariga ega harbiy xizmatchi bilan tanishdik. U markaz boshlig‘i mayor Shahboz Eshonqulov edi. Vazmin, shoshmasdan, so‘zlarni chertib, mulohaza bilan bosiq gapiradigan, nim tabassum bilan suhbatdoshini tinglaydigan bu yigit 2023-yilda Prezident farmoniga binoan “Mardlik” ordeni bilan taqdirlangan ekan.

1990-yil Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida tug‘ilgan mayor Eshonqulov bilan suhbatimiz qisqa vaqt kechgan bo‘lsa-da, shuning o‘zi u haqda xulosalar qilishga yetarli bo‘ldi.



Halovat XODJAYEVA,
mayor Shahboz
Eshonqulovning onasi:

– O‘g‘lim shu kungacha nimaga erishgan bo‘lsa, hammasiga o‘zining kuchi, tirishqoqligi bilan erishdi. Men oddiy bir onaman. Qo‘limdan kelganicha tarbiya berdim, ulg‘aytirdim. O‘g‘limning ismi mard yigitlarning eng birinchi qatorlarida tilga olinishi meni behad quvontiradi. Shu kunlarga yetkazganiga, Xudoga beadam shukurlar aytaman. Kecha-yu kunduz Shahbozni va u qatori yurtimiz himoyasida turgan yigitlarni alqayman, duo qilaman.

Vatanimizdagi tinchlikka, hamjihatlikka, botir o‘g‘lonlarimizga ko‘z tegmasin, ilohim!



Mualif suratga olgan

Yaqinda bizdan ikki nafar harbiy xizmatchi til o‘rganish markazida kurs mashg‘ulotlarini o‘tab qaytdi. Ular bilan alohida suhbatlashib, yo‘l-yo‘riqlar berdim. Til o‘rganishni bir zum ham to‘xtatmaslikni va albatta, til bilish darajasini belgilovchi xalqaro sertifikat uchun harakat qilishlarini tayinladim.

2018-YIL AQShning Rod Ayland shtatida “Tabiiy ofatlar yuz berganda Qurolli Kuchlarni qo‘llashning huquqiy normalari” mavzusidagi seminar qatnashdim. Shu yil Pokistonning Sind provinsiyasida joylashgan Chor cho‘l maktabida cho‘l sharoitida yashovchanlik kursida o‘qidim. 2019-yilning may oyida Shotlandiya qirolligining Edinburg shahrida joylashgan xalqaro universitetda bir oylik malaka oshirish kursini tamomlab, shu yilning oxirgi choragida Buyuk Britaniyaning Uels qirolligida bo‘lib o‘tgan “Cambria Patrol – 2019” musobaqasida O‘zbekiston razvedkachilar jamoasi tarkibida ishtirok etdim. Qirqdan ortiq davlat vakillari qatnashgan ana shu musobaqada o‘zbek askari nimaga qodirligini ko‘rdim. Bizning jamoa, har jihatdan chidamli ekanligini, qiyinchiliklarni pisand etmasligini ko‘rsatdi. O‘shanda ba‘zilar topshiriqlarni bajarishda murakkab to‘siqlarga duch kelib, yo‘lni davom ettirmagan bo‘lsa, bizning askarlar to‘xtamadi. Har qancha og‘ir, mashaqqat bo‘lsa-da, yengib o‘tib, maqsadiga erishdi. G‘olib bo‘ldi. Buni hamma ko‘rdi, olqishladi.

HARBIY XIZMATCHI hozirgi globallashuv, jahondagi murakkab harbiy-siyosiy vaziyat sharoitida chuqur bilim va tafakkurga ega bo‘lib, sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni to‘g‘ri baholay olishi, o‘z nuqtayi nazariga, mustaqil fikriga ega bo‘lishi shart va zarur, deb bilaman. Bu jarayonda mashg‘ulot rahbarlari – ofitserlar tashabbusni o‘z qo‘liga olishlari kerak. Faqat kasb sirlarini

– **OCHIG‘INI AYTSAM**, maktab davrida o‘zimni harbiy sohada tasavvur ham qilmaganman. U paytda tog‘am rassom bo‘lgani uchun rasm chizishga qiziqib, musiqa va san‘at maktabiga qatnaganman. U yerda g‘ijak chalishni, rasm chizishni o‘rgandim. Durustgina rasm chizib, g‘ijakni ham ma’noli chalishni boshlagan kezlarim onam biz aka-ukalarni bir joyga jamlab, savol berib qoldilar: “Qaysi biringiz otamning kasbini davom ettirasiz?” Avvaliga biroz o‘ylanib qoldik, keyin xuddi birov mendan oldin eng yaxshi narsani ilib ketadigandek, “Men!” dedim baralla.

Shunday qilib, sakkizinchi sinfni bitirganimdan keyin Toshkentdagi harbiy akademik litseyga o‘qishga kirdim. 2010-yil Chirchiqdagi oliy harbiy bilim yurtining havo-desantchilari fakultetida tahsilni boshladim. Birinchi bosqichda desant tayyorgarligini tushunish, his qilish jarayonlari kechdi. Ikkinchi bosqichdan kasb sirlarini, ilmini rasmana o‘rganishga kirishdim. Kunning har bir soati belgilangan tartib bilan o‘tar, qishda qor kechib, yozda kun qiziganda shug‘ullanib chiniqdik. To‘rt yillik

o‘qish va mashqlar, ustozlarimning o‘gitlari men uchun hozirgacha poydevor bo‘lmoqda.

2017-YIL Mudofaa vazirligining ixtisoslashgan til o‘rganish markazida o‘qib, ingliz tilini mukammal egalladim. Ammo biror nimani yaxshi bilganingiz bilan uni takrorlab turmasangiz yoddan ko‘tariladi. Shuning uchun har kuni kamida bir soat kasbimga oid yoki tarixiy mavzuda kitob o‘qish, film ko‘rish, grammatikani takrorlash yoki boshqa ko‘rinishda ingliz tili bilan shug‘ullanishni o‘zimga majburiyat etib belgiladim. Inson istasa vaqt topiladi, istamaganga bahona, deyishadi-ku. Vaqt topilyapti. Bir necha bor xorij safarlarida bo‘lib, seminarlarda, kurs o‘qishlarida, xalqaro musobaqalarda qatnashganman. Ana shu safarlar ham til o‘rganish zarur ekanligini anglatgan. Bu faqat muloqot uchun emas, shu bilan birga harbiy sohada ilg‘or tajriba va yangiliklarni ham o‘rganish uchun kerakligini chuqur tushunganman. Qolaversa, komandir yoki boshliq qo‘l ostidagilarni o‘z ortidan ergashtirishi uchun ham kuchli, bilimli bo‘lishi shart.

o‘rganish bilan ish bitmaydi. Shu bilan birga vatanparvarlik hissi kuchli, sog‘lom va muqim bo‘lishi lozim.

BIZNING SOHADA to‘xtab qolish yaramaydi. Shuning uchun ham markazda barcha sharoitlar yaratilgan bo‘lsa-da, qiladigan ishlarimiz hali ko‘p deymen. O‘quv nuqtalarini, mashg‘ulot dasturlarini yil sayin takomillashtirib borish, o‘rganuvchilarda bosiqlik, chidamlilik, har qanday sharoitda sabrli bo‘la olish sifatlarini kun sayin, soat sayin shakllantirish... Buning uchun shaxsiy tarkib, yo‘riqlarimiz fidoyilarcha xizmat qilishmoqda.

Mening davlat mukofoti bilan taqdirlanishim, safdoshlarimizning xalqaro musobaqalardagi yutuqlari zamirida jamoamizning jipsligi, bir kuch ekanligi, metin irodasi, ulkan sabri va mehnati bor.

ODAM ulg‘aygan sari do‘stlari ham, o‘qiydigan kitoblari ham saralanib borar ekan. Ayni paytda kasbimga oid asarlar kitob javonimning oldingi qatorlarida turadi. Ko‘proq harbiy sohaga oid ingliz tilidagi kitoblarni, jurnallarni o‘qib, o‘zim uchun yangi ma‘lumotlar olaman. Ko‘pgina yo‘nalishlarda tahliliy xulosalar qilib, hayotga tatbiq etish choralarni ko‘raman, kelgusi rejalarimni, bajarishim lozim bo‘lgan ishlarni belgilab olaman.

OILADA to‘rt nafar farzandimiz. Otam 4 yoshimda kasallik tufayli vafot etganlar. Hammamiz bola edik. Onam bizning kelajagimizni o‘ylab, turmush qiyinchiliklarini mardona yengib o‘tdilar. Oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘ bo‘ladi, deb to‘g‘ri aytishar ekan. Hozir onajonim farzandlar, nabiralar hurmati va e‘zozidalar.

To‘g‘risini aytsam, men onamdan kuch olaman, quvvat olaman. Hamisha hamma ishda ularga suyanaman, baxtimga, baxtimizga omon bo‘lsinlar!

Furqat ERGASHEV



SHAXS KAMOLOTIDA MAFKURAVIY TARBIYANING O'RNI

Shaxs tarbiyasida eng muhim yo'nalishlardan biri mafkuraviy tarbiya bo'lib, u insonning hayot, uning ma'nosi, yashashdan maqsad, har bir odamning jamiyatdagi o'rni to'g'risidagi falsafiy tushunchalari, o'y-fikrlari va qarashlarining muayyan maqsadga qaratilgan jarayoni demakdir.

Aslida, tarbiya jarayonining mazmun-mohiyatini boshdan oyoq g'oyaviy tarbiya tashkil etadi, desak, to'g'ri bo'ladi. Chunki ta'lim tizimida ham, akademik ta'limda ham barchasida beriladigan ta'lim va tarbiya jarayonlari o'quvchi, talaba hamda tinglovchilar dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongi va qalbini ilmiy bilimlar bilan boyitish hamda jamiyat va uning ravnaqi uchun kerak bo'lgan insoniy fazilatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu esa tom ma'noda mafkuraviy tarbiyaning asosi, poydevoridir. Shu boisdan mafkurasiz inson, shaxs, guruh, millat, xalq, jamiyat bo'lishi mumkin emas. **Har qanday mafkuraviy tarbiyaning maqsadi jamiyatdagi har bir fuqaroni, uning timsolida har bir ijtimoiy qatlam, guruhni tarbiyaviy yuksaltirishdir.**

Hukumatning 2019-yil 31-dekabrda 1059-son qarori bilan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning tasdiqlanishi yurtimizda mafkuraviy tarbiyani yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Konsepsiyada ta'kidlanganidek, taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ygan mamlakatimizda "tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi".

Mavzu doirasida 2021-yilning aprel oyi davomida keng miqyosda onlayn so'rovnoma o'tkazildi. Unda turli yosh va kasbga ega bo'lgan 758 nafar respondent ishtirok etdi. Ularning 35,4 foizi shaharda, qolganlari esa tuman markazlari va qishloqlarda istiqomat qiluvchi turli millat vakillaridan iborat bo'lib, aksariyat qismi, ya'ni 53,4 foizi oliy, 21,7 foizi o'rta maxsus, 15,6 foizi o'rta ma'lumotli shaxslardan iborat edi. Ishtirokchilar orasida ilmiy darajali olim va mutaxassislar, o'qituvchilar, shifokorlar, tadbirkorlar, magistrlar, talabalar hamda boshqa kasb egalari borligi so'rovnomaning miqyosi va salmog'idan dalolat beradi.

Ishtirokchilarga "Shaxs kamolotida g'oyaviy tarbiyaning o'rni va ahamiyati qanday?" degan savol berilganda, ularning 80,3 foizi "Juda muhim", 13 foizi "Unchalik muhim emas", degan javoblarni, qolganlari esa "G'oyaviy tarbiya zarur emas" va "Bilmadim", degan javoblarni berishdi. Xulosa ma'lum – shaxs tarbiyasida g'oyaviy tarbiyaning ahamiyati katta.

Mafkuraviy tarbiyaviylik, eng avvalo, yuksak iymon-e'tiqod, Vatan va xalq oldidagi mas'uliyat, vatanparvarlik, fidoyilik kabi fazilatlar orqali namoyon bo'ladi. Sog'lom g'oyalar tarbiyasi – bu yuksak dunyoqarash va e'tiqod tarbiyasi, degan ma'noni bildiradi. Dunyoqarash – bu tartibga solingan, bir butun va ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvur va g'oyalar majmuyi bo'lib, u har qanday shaxsni jamiyatda o'zining munosib o'rini egallashga chorlaydi.

Keyingi yillarda shakllangan yangicha dunyoqarash yosh avlodda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyat va an'analarga mehr-muhabbatni, o'z yaqinlariga mehribonlikni, hayotda tanlagan yo'li – kasbi, maqsad-maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash, yangicha tafakkur aynan milliy mafkura ruhida tarbiya topib, sayqallangan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqod mahsuli demakdir. E'tiqod – bu ijtimoiy-psixologik tushuncha bo'lib, odamning muayyan qarash, ta'limot, nazariya, hayotiy aqida, qadriyat yoki faoliyat tamoyillarini hissiy-emotsional qabul qilish jarayonida shakllangan sobit fikr va tasavvurlar majmuyini ifodalaydi.

Dunyoqarashi keng, yangicha fikrlaydigan insonni kamol toptirish, albatta, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini tamomila yangicha bosqichga ko'tarishni talab qiladi. Prezidentimizning "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishning samarali va ta'sirchan targ'ibot texnologiyalari hamda usullarini ishlab chiqish" muhim vazifa sifatida qo'yilganligi bejiz emas. Globalashuv jarayonlari tobora keskin tus olayotgan hozirgi davrda ma'naviyat omili xaloskor kuchga aylanishi zarur. Ayniqsa, "milliy tiklanishdan milliy yuksalish yo'liga o'tayotgan O'zbekiston uchun ma'naviy tarbiya bugun har qachongidan ko'ra ahamiyatlidir".

Yuqorida qayd qilingan so'rovnoma jarayonida respondentlarga "Yoshlarga mafkuraviy (g'oyaviy) ta'sir ko'rsatish sifati sizni qoniqtiradimi?" deb murojaat qilinganda ularning 53,6 foizi "Yo'q", 41,3 foizi "Qisman", qolgan 5,1 foizi "Ha", degan javob berganligi ham shu xulosani tasdiqlaydi.

Bizningcha, quyidagilar jamiyat a'zolariga mafkuraviy ta'sir ko'rsatish samaradorligini o'lchash mezonlari bo'lishi mumkin:

- aholining siyosiy va huquqiy jihatdan bilimdonligi, ijtimoiy faolligi;
- jamiyat a'zolarining axloqan sog'lomlashganligi, fuqarolarning o'zlarini ruhan tetik va bardam tutishlari;
- har bir inson o'zligini anglash orqali mustaqil fikr yuritishga qodirligi;
- vatanparvarlikning barcha ko'rinishlari kundalik maishiy turmushda namoyon bo'layotganligi;
- aholida o'z bilim saviyasini oshirishga intilishning namoyon bo'lishi, gazeta-jurnal, vaqtli matbuot, nashr ishlariga talabning ortib borishi;
- butun jamiyat miqyosida ma'naviy va ijtimoiy muhitning sog'lom va barqarorligi;
- yot g'oyalarga murosasiz bo'lish, mustaqillik g'oyasini har qanday sharoitda himoya qila olishga qodirligi.

Mamlakatimizda ma'naviy hayotni yangilash zarurati komil inson g'oyasini targ'ib qilish, uni uzluksiz ta'lim jarayoni va mazmuniga chuqur singdirish bilan chambarchas bog'liq. Komil inson g'oyasi jismoniy va ma'naviy jihatdan mukammallikka erishgan, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan, mardlik, saxovat va ezigulikni vujudiga singdirgan, o'zining shaxsiy hayoti va mehnat faoliyati bilan barchaga ibrat bo'la oladigan oliyanob inson g'oyasidir. Komil, ya'ni **"odam va olam taqdiriga vijdon bilan qarash qobiliyati shakllangan"** insonni tarbiyalash butun faoliyatimizning pirovard maqsadiga aylanishi zarur.

Komil inson g'oyasi qadimdan odamlarni, xalqlarni ma'naviy yuksaklikka yetaklagan, ezgu ishlarga, hayotning barcha sohalarida muvaffaqiyat va yutuqlarga ilhomlantirib kelgan. Barkamollikni maqsad qilib qo'yilmagan, bu haqda qayg'urmagan va unga intilmagan davlatning, millatning

kelajagini tasavvur qilish qiyin. Bunday yondashuv millatni tanazzulga olib kelishi tayin. Insoniyat tarixi ushbu haqiqatni allaqachon isbotlagan.

Komil inson yuksak vatanparvarlik xislatlariga ega bo'lgan, milliy g'ururi kuchli, adolatparvar, o'zining yurti va xalqi sha'ni, obro'si uchun kurashadigan, uni barcha narsadan ustun qo'yadigan fidoyi insondir.

U o'zining bilimdonligi, yuksak madaniyati, xulq-atvori, erkin fikrlay olishi, kreativligi, ijtimoiy faolligi, ibrat namunasi bo'lishi orqali boshqalardan ajralib turadi. Har bir inson tabiatida barkamol bo'lishga intilish ishtiyoqi bor. Komillikning o'zi nima? Komillik bu mukammallikdir. Mukammallik esa maqsadga muvofiqlikdir. Agar har bir inson o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, unga intilib yashasa va butun hayoti ana shu maqsadga muvofiq bo'lsa, uni yaxshi, e'tiqodli odam deyish mumkin. Demak, u komil, mukammal inson demakdir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yoshlarimizning kelajagi haqida gapirar ekan, shunday iqtibosni keltiradi: "Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan yoshlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: **"Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik libosini kiyib, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq"**. Qarang, qanday bebaho, oltinga teng so'zlar!"

Bugun mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni xalqaro andazalar darajasiga olib chiqish, eng avvalo, jismonan sog'lom, ma'nan barkamol, bir so'z bilan aytganda, yuksak ma'naviyatli avlodni tarbiyalash orqali amalga oshiriladi. Zero fazilatli inson komil insondir. Bunday inson nafs balosini, huzur-halovatga moyillikni yenga oladigan irodali insondir. Odamning ma'naviyatini yuksaltirish orqali uni komil va mukarram inson martabasiga ko'tarish mumkin. Inson qanday fazilat – axloqiy, madaniy sifatga ega bo'lsa, ularni namoyon etsa, qadr-qimmatini ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Taniqli olim M. Qur'onov ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ilmiy izlanishlar bilan oziqlantirish zarurligini ta'kidlab, shunday deydi: "...ma'naviyat va ma'rifat tizimi millatimizning ilmiy bilimlarini oshira borishni ham ko'zda tutadi. Bu jamiyatning umumintellektual saviyasi (*tarix, falsafa, musiqa, siyosat, adabiyot, menejment va boshqa bilimlari*)ni oshiradi. Boshqacha qilib aytganda, har bir o'rta arifmetik fransuz, nemis, amerikalik, yapon bilgan umumiy bilimlarni har bir o'zbek ham bilishi kerak. Demak, ma'rifat (*intellektual targ'ibot*) xalqni maktab, institut, universitetdan keyin ham uzluksiz o'z ustida ishlashiga, zamonaviy bilimlardan xabardor bo'lib borishiga xizmat qiladi. Chunki bilimli jamiyatgina kuchli jamiyat bo'la oladi".

Har qanday shaxsning shakllanishi, avvalo, ta'lim tizimi qanday tashkil etilganligi va uning samaradorligi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, shaxsni tarbiyalash va uni kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi. Uzluksiz ta'lim va maqsadli tarbiya orqaligina komillik sifatlariga ega bo'lgan barkamol insonlarni voyaga yetkazish mumkin. Bu esa Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Komil HAYDAROV,
Samarqand viloyati
pedagogika markazi
professori, falsafa fanlari doktori

Mulohaza

RAHBAR XODIMLARGA BOSHQARUV MADANIYATIDA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni kuzatar ekanmiz, yurtimizda tom ma'noda yangilanishlar davri boshlanganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, 2017-yil 7-fevralda "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning qabul qilinishi mamlakatimiz kelajagi uchun ulkan istiqbollar yo'lini ochib berdi.

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisda qilgan murojaatnomasida "Mamlakatimizda qabul qilinayotgan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishda ijro hokimiyati organlarning uyg'un faoliyat olib borishi g'oyat muhim ahamiyatga ega. Afsuski, bugungi kunda faoliyat yo'nalishidagi javobgarlik darajasi, vakolat mexanizmlari aniq chegaralab, belgilab qo'yilmagani ishimizga xalaqit bermogda. Shu munosabat bilan davlat boshqaruvida ochiqlikka asoslangan, samarali qarorlar qabul qilish tizimini tatbiq etish lozim. Davlat boshqaruvi organlari va Vazirlar Mahkamasi o'rtasida o'zaro hamkorlikda ish olib borish bo'yicha prinsip va mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Har bir vazirlik o'ziga ishonib topshirilgan sohada davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlashi va yakuniy natija uchun to'liq javobgar bo'lishi shart", degan fikrini ilgari surgan edi. Zero rahbar madaniyati bu kabi qusurlarning tarkib topishiga yo'l qo'ymaydi.

Chunki rahbarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi ushbu xislatlarda jamuljam bo'ladi:

- shaxsning aqliy, axloqiy va ruhiy jihatdan rahbarlikka mosligi;
 - ma'naviy-madaniy qiyofasining yuksakligi;
 - rahbarlik salohiyatini his eta olish;
 - rahbarlik madaniyati, o'z tajriba va malakasini muntazam oshirib borishi;
 - o'zlikni anglash, tarix va milliy qadriyatlarga munosabati, milliy g'ururi, iftixori, milliy istiqlol g'oyasiga sodiqligi;
 - ijtimoiy hayotda halollik, adolat, qonunchilik va haqiqatga tayanishi;
 - boshqaruvda demokratik tamoyillarni qo'llay olish qobiliyati;
 - o'z manfaatini xalq manfaati bilan uyg'un ko'rishi, jamiyat manfaatini ko'zlashi;
 - faoliyatda manfaatparastlik, shaxsiyatparastlik, boqimandalik, mahalliychilik, tamagirlik kabi illatlarga qarshi murosasiz kurash olib borishi;
 - kadrlar zaxirasini yaratish, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va halol, haqiqat yuzasidan ularni joy-joyiga qo'yishi;
 - el-yurt farovonligi, xalq baxti, Vatan ravnaqi yo'lida fidokor bo'lishi kabilardir.
- Bu kabi xislatlar asosida korxona rahbarining axloqiy qiyofasi shakllantirilib boriladi. Deylik, rahbar uchun muomala

madaniyatini egallash bu degani odamlar ishonchini qozonib, ularning qalb dunyosiga kirishdir. Shundagina rahbar odamlarning mehri va ishonchini to'la qozona oladi. Agar buning aksi bo'lsa, odamlar ko'nglini topolmasa, u katta xazinani yo'qotadi, kelajakda bunday rahbarni achchiq qismatlar kutadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini uyg'un holda tasavvur qilib, eng asosiy ustuvor vazifa etib, **"Inson manfaatlari hamma narsadan ustun!"**, degan oliyjanob g'oyani bugungi kun rahbarlari izchillik bilan hayotga tatbiq etishi lozimligini aytib, buning uchun quyidagilarni ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi.

Birinchi, fuqarolar bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yishning yangi samarali usul va mexanizmlarini tatbiq qilish, jumladan barcha darajadagi rahbarlarning aholi oldida hisobot berish tizimini joriy etish.

Ikkinchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi, har bir tuman hamda shahardagi Xalq qabulxonalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlash rahbar xodimlar uchun yangi zamonaviy talab deb hisobladi.

Prezidentimiz shu munosabat bilan rahbarlar joylardagi hokimlar va ularning birinchi o'rinbosarlari o'z ish uslubi hamda dunyoqarashini tubdan o'zgartirishi shartligini ta'kidlab o'tdi. Bugungi kunda hayotning o'zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'ymoqda.

Ular quyidagilardan iborat deb hisoblaydi:

Birinchidan, ayrim idoralar va ularning rahbarlari real hayotdan va xalq ehtiyojlaridan ma'lum darajada uzilib qolmoqda.

Ikkinchidan, tarmoq va hududlarni rivojlantirish konsepsiyalari va dasturlarini ishlab chiqishda yuzaki yondashuvga yo'l qo'yilmoqda.

Va nihoyat, uchinchi asosiy kamchilik – ko'pchilik rahbarlarning murakkab muammolarni kabinetdan chiqmasdan, joylardagi ishlar qanday ahvolda ekanini chuqur o'rganmasdan hal etishga odatlanib qolgani bilan bog'liq.

Rahbar xodim oddiy kishilar bilan insoniy va mo'tadil munosabatda bo'lishi lozim. Bunday munosabat odamlarning rahbarga erkin murojaat qilishiga olib keladi. Natijada korxonada ortiqcha muammolar va tushunmovchiliklar yuzaga kelmaydi, ish sur'ati oshadi, jamoada muhit barqaror bo'ladi. Rahbar xodimning manmanlik va kibrli munosabati uning madaniyatsizligini ko'rsatadi. Bu hol, avvalo, rahbar xodimning o'ziga, qolaversa, jamoaga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Rahbar xodim murakkab, bahsli va tortishuvlar sharoitida oqillik holatida bo'lishi kerak. Aqlga suyanish ortiqcha xatti-harakatlardan saqlaydi. Rahbar xodim o'zini tuta bilishida jamoaga o'rnak bo'lishi kerak. Aks holda, rahbar xodimning o'zini tuta olmasligi jamoada noqulay kayfiyatni keltirib chiqaradi va rahbar obro'siga ziyon yetkazadi. Zero bu madaniy fazilatlar rahbar xodim tomonidan tajriba vositasida izchil o'zlashtirilib borilishi kerak.

Yurtboshimiz 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasiga muvofiq, belgilangan vazifalarni amalga oshirishda uchta eng muhim talab hal etuvchi darajaga bog'liqdir deb ta'kidlaydi.

Ular:
birinchi, davlat rahbari – Prezidentdan boshlab barcha bo'g'indagi rahbarlarning ishni birgalikda bajaramiz, natija uchun esa har birimiz shaxsan javob beramiz.

ikkinchi, hamma sohada aniq tartib va qattiq intizomni ta'minlashimiz darkor.

uchinchi, qatorlarimiz va kadrlarimizning sofligini ta'minlash, ishdagi har qanday salbiy holatlarning oldini olish va bunday illatlarning ildizini quritish.

Kundalik turmushda inson boshqa odamlar bilan turli darajadagi munosabatlarga duch keladi. Unda u ma'lum qadriyatlarga asoslanib, xatti-harakatlarini namoyon etadi. Jamiyat ham shunday zarur munosabatlardan tashkil topgan. Bu ehtiyoj axloqiy normalar negizida tartibga solinadi. Inson nafaqat doimiy takomillashib, rivojlanib borishga, balki tafakkur egasi sifatida yaxshini yomondan ajratadigan axloqiy mavjudotdir.

Shuning uchun axloq insonning shaxsiy qadriyatiga aylanganda, uning aniq faoliyati va xatti-harakatlariga ko'chib o'tganda real yo'naltiruvchi kuchga, burchga aylanadi. Mazkur munosabatsiz axloqning mavjudligini ta'minlab bo'lmaydi. Aynan shu xususiyatlar axloqning jamiyatda bir xil qoidalar asosida yashayotgan turli manfaatli munosabatlarni tartibga soladigan ijtimoiy funksiyasini ifoda qiladi.

Har bir rahbar o'zi uchun muloqotning etikaviy tartiblarini o'zlashtiradi, shaxsiy fazilatlar va tajribalari bilan boyitadi, manfaat hamda ehtiyojlar doirasida undan foydalanadi. Muhimi u, o'z-o'zini baholay olish, tashqaridan kuzatish, xatti-harakatlarini muntazam ravishda tahlil qilish, tanqidiy baho berish salohiyatiga ega bo'lishi lozim. O'ziga baho bera olish qobiliyati shaxsning ichki intizomini mustahkamlaydi, maqsad-muddaolarining mantiqiylikni belgilaydi, muloqot maqomini oshiradi, tug'ilishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf qiladi, ixtiloflarning oldini oladi, murakkab vaziyatlar yechimini topadi, suhbat mavzusini ijobiy o'zgartirishga erishadi. Natijada salbiy emotsiyalar qarshiligini to'suvchi sog'lom ruhiy munosabat qaror topadi.

Shunday qilib, rahbar ma'naviyati, boshqaruv madaniyati, rasmiy munosabatlar tartibi, jamoaning axloqiy normalari, joriy etilgan odob, xulqiy va ixtiloflarni hal etish tartiblari, xodimlarning shaxsiy va mehnat huquqlari, ishdan tashqari shaxsiy munosabatlarning madaniy darajasi rahbar axloqini o'rganish obyekti hisoblanadi. Rahbar axloqini o'rganuvchi predmetlarga falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, psixologiya, politologiya va boshqa yana bir qancha fanlar kiradi.

Davlatimiz rahbarining asarlari, nutq va ma'ruzalaridan kelib chiqqan holda rahbarning jamoaga nisbatan quyidagi xususiyatlari keltiriladi:

- kishilarga xayrixoh va iltifotli bo'lish;
- oliyjanoblik va beg'arazlik, xolislik;
- kishilarning qadr-qimmatiga yetish;
- fuqarolik va kasbiy burchini bajarish;
- kishilarning o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini qo'llab-quvvatlay olish, uning shaxsiy kamchiliklarini bartaraf qilishga yo'naltira bilish;
- yuqori nutq madaniyatiga ega bo'lish va tashqi ko'rinishdagi ozodaligi;
- xushmuomalalik, sipolik;
- kamsuqumlik, vazminlik;
- andishalilik, mas'uliyatlilik;
- mehnat va do'stlikdagi sherikchilikda o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash;
- prinsipiiallik va ishonch;
- talabchanlik, qat'iy tartib-intizomni saqlash;
- tanqidiy tahlil, shaxsiy javobgarlik, mas'uliyatlilik;
- yuqori darajadagi fuqarolik;
- vatanparvarlik va baynalmilallik;
- jamiyat baxt-saodati yo'lida halol mehnat qilish, jamiyat boyligini ko'paytirish haqida g'amxo'rlik qilish.

Rahbarga qo'yiladigan talablar:

- ma'naviy yetuklik;
- huquqiy yetuklik;
- axloqiy yetuklik;
- yuqori saviya va ong;
- ma'rifatchilik;
- madaniyatlilik;
- xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qodirlik;
- topshirilgan ish uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish, halollik;
- shaxsiy manfaatlarni jamoa manfaatlariga bo'ysundirishga qodirlik;
- kishilarga nisbatan mehribon va e'tiborli bo'lish;
- tashabbus va ilg'orlikni qo'llab-quvvatlash qobiliyati;
- prinsipiiallik;
- tanqidga chidamli bo'lish, o'z-o'zini tadqiq qila bilish.

Intizomga va mehnatga bo'lgan munosabat:

- mehnatsevarlik;
- jamoa o'rtasida intizomni yo'lga qo'ya bilish;
- atrofdegilarni mehnatsevarlikka tarbiyalay bilish.

Tashkilotchilik qobiliyati:

- xodimlarni tanlay bilish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlay olish;
- qo'l ostidagilarni mehnatga o'rgatish va tarbiyalashni bilish;
- jipslashgan jamoani vujudga keltira olish, maqsad sari intiluvchanlik.

Rahbarning har bir xatti-harakati, aytgan so'zlari hamisha atrofdegilarning diqqat-e'tiborida bo'lib keladi. Ba'zan o'zimga "Rahbar qanday bo'lishi kerak?" degan savolni berar ekanman, bu savolimga ulug' ajdodlarimizning purma'no hikmatlari va ibratli hikoyalari javob izlayman. Nazarimda, rahbar avvalo, o'z axloq-odobi, ya'ni muomalasi bilan boshqalardan ajralib turishi lozim. Ayniqsa, bu borada tiliga alohida e'tibor qaratishi zarur bo'ladi.

Rahbarning sifati va xislatlarini belgilovchi mezonlar ko'p. Biroq quyidagi ijobiy xislatlar ular orasida alohida mavqega ega. Dovyuraklik – bunday rahbarda mardonavorlik, botirlik, dadillik mavjud bo'ladi. Ular hech qachon omadsizlikdan qo'rqmaydi, aksincha, omadsizlik ularni jasoratga chorlaydi va zafarlarga olib keladi. Har bir yangi harakatni taraqqiyotga va hayotiy tajribalarga erishtiradi.

Xulosa qilib aytganda, Yurtboshimiz qayd etganidek: **"Zamonaviy, oqilona boshqaruv tizimini joriy etish – oldimizga qo'ygan vazifalarni bajarishning asosiy shartidir"**. Zero bugungi davr bilan hamnafas yashayotgan har bir yurtdoshimiz Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona davlat boshqaruvidagi tashabbuskor islohotlari, o'z navbatida, mamlakatimizning kelgusidagi istiqboliga zamin yaratishini teran anglashi lozim.

Marziya QARSHIYEVA
Belarus–O'zbekiston qo'shma
tarmoqlararo amaliy texnik
kvalifikatsiyalar instituti



ILMIY, INNOVATSION ISHLANMALAR

ishtirokchilarning diqqat-e'tiborida bo'ldi



Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida "Professional armiya boshqaruvini rivojlanishida innovatsiyalar va raqamlashtirishning o'rni" mavzusida VI Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

Unda mudofaa vazirining o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev, oliy harbiy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, kursantlar hamda bir qator xorijiy mamlakatlardan taklif qilingan mutaxassislar onlayn muloqot orqali ishtirok etdi.



Tadbir avvalida o'tkazilgan Innovatsion ishlarni ko'rgazmasi, ayniqsa unda kursantlarning ishtiroki ko'pchilikning diqqat-e'tiborida bo'ldi. Yoshlarning o'zlari mehmonlarni yaratgan kashfiyot va g'oyalari, takliflarining maqsadi, vazifalari hamda kutilayotgan natijalar bilan tanishtirib o'tdi. O'z o'rnida tashrif buyuruvchilar

fikr-mulohazalarini bildirish asnosida kelgusidagi hamkorliklar haqida ham kelishib oldi.

– Ushbu ko'rgazma yosh ixtirochilarning o'zlariga bo'lgan ishonchini oshirishi bilan yanada ahamiyatli bo'ldi. Ular bu yerda nafaqat qilgan mehnatlari bilan boshqalarni tanishtirdi, balki keng jamoatchilik va mutaxassislarning bu boradagi qarashlari, munosabatlaridan ham xabardor bo'ldilar. Qolaversa, ushbu ko'rgazma ularning kelgusidagi loyihalarini ham yangi-yangi g'oyalar bilan boyitishlariga yordam berganiga shubha yo'q, – deydi podpolkovnik Temur Madrahimov.

Ikkinchi yalpi majlis davomida ishtirokchilar shu'balarga bo'linib, Qurolli Kuchlarda sun'iy intellekt tizimlarining dasturiy va texnik ta'minoti, kibernetika, kibernetika rivojlantirish istiqbollari, harbiy kadrlarni tayyorlashda raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligi, aerokosmik injiniring kabi qator mavzularni har tomonlama muhokama qilib, bu boradagi tajriba, bilim va ko'nikmalarini almashdi.

Konferensiya doirasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari



Mualif suratga olgan

o'rtasida kibersport musobaqasi o'tkazildi. Ta'kidlash kerakki, kibersport nafaqat sport musobaqasi, balki raqobat ruhi, yuksak aqliy salohiyatni yuzaga chiqarish, adolatli kurashda iroda va xarakterni namoyon etish, ruhiyat hamda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash imkoniyatidir.

Shu ma'noda musobaqa ishtirokchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'rtasida harbiy-texnik hamkorlikni mustahkamlash hamda sog'lom raqobatni rivojlantirish, o'zaro anglashuvni mustahkamlashga xizmat qildi.

Konferensiya jarayonini kuzatar ekanman, bundan 20-25 yil avvalgi hayotimiz ko'z oldimga keldi. U mahallalar odamlar orasida o'zaro jonli muloqot anchayin ko'p edi. Hozirgidek internet, telefonlar bu qadar ommalashmagandi. Bugun shahardan olis qishloqlardagi momolar ham xorijdagi nabirasi bilan

internet orqali, ko'rib suhbatlashadi. Aksariyat yoshi kattalar ham Telegram, Facebook, Instagramdan foydalanadi. Hayotimizga hatto sun'iy intellekt ham kirib keldi. Bu mavzuni ochsam, gap chuvalashadi.

Xo'sh, nima deb o'ylaysiz, 20-25 yildan keyin hayotimizda nimalar yuz beradi?

Bu savolga javob har kimning fikrlash tarzi, tafakkur darajasiga ko'ra belgilanadi. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya davomida chiqargan xulosam shu bo'ldiki, o'sha paytda ham milliy armiyamiz, Qurolli Kuchlar innovatsiyada zamon bilan baqamti, balki ildamroq ketayotgan bo'ladi.

Konferensiya yakunida ana shunday yangilanish va o'zgarishlarga, yaratuvchanlikka chanqoq, faol ishtirokchilar, hamkorlar hamda eng namunalari ishlarni mualliflari mutasaddilar tomonidan taqdirlandi.

Mayor Aziz NORQULOV,
"Vatanparvar"



AMIR TEMURning 313 SARKARDASI

SADR TURKMAN

Malash Apardiyning otasi. 1390-yilda Umarshayx mirzo ibn Amir Temur tomonidan Jataga jo'natilgan besh ming kishilik cherikka o'g'li Malash va nabirasi Takash bilan birga sardorlik qilgan.

SAYYID ALI

Amir Sayyid Kamoluddin ibn amir Sayyid Qavomuddin o'g'li. Sohibqiron Rum (*Kichik Osiyo*) va Shom (*Suriya*) safaridan qaytayotgan vaqtda Erondagi Omul va Sori viloyatlari hukumatini unga inoyat qilgan. Amir Temur vafotidan keyin Shohrux mirzo ham shu viloyatlarni Sayyid Aliga boshqarish uchun bergan. 1409–1410-yilda Shohrux mirzoning Movarounnahrda ketganligidan

foydalangan uning birodari amir Sayyid Murtazo Sayyid Alidan qayd etilgan viloyatlarni tortib oladi. Ammo tez orada Astroboddagi soriylar hamda amir Xizrxoja navkarlaridan yig'ilgan lashkar yordamida Sayyid Ali Soriga yuzlanadi va Sayyid Murtazoni u yerdan quvib chiqarib, boshqaruvni qayta o'z qo'lga oladi.

SAYYID(ALI)XOJA

Shayx Ali bahodurning farzandi. Sohibqiron qo'shinining tuman beklaridan biri, ulug' bek rutbasi sohibi. Yetti yillik va Hindiston safari qatnashchisi.

1393-yil 13-sentabrda Karbalo dashtida Sulton Ahmad jaloyirning ikki ming kishidan iborat lashkari bilan yuz bergan to'qnashuvda matonat ko'rsatgan 45 nafar sarkarda safida Sayyidxoja ham bor edi. Tikrit qal'asini zabt etishda jonbozlik ko'rsatgan.

Anqara muhorabasida Temurbek rahbarligidagi markaziy qism (*g'o'l*) ning so'l qanotida turgan.

Atoqli bek asosan Shohrux mirzo qo'shinida xizmat qilgan. 1405-yili Mizrob bahodur hamrohligida Sabzavorni Pir podshohdan tortib olgan. Shu yilda Shohrux

tomonidan Tus hamda Mashhad hokimi etib tayinlangan. 1406-yilda Xuroson hukumatini boshqarishga belgilangan. Ayni shu yili Shohrux mirzo buyrug'iga binoan, Kalotdagi Sulaymonshoh tarafdorlarini bandi qilgan, ular qurgan binoni buzib tashlagan. Ushbu xizmatlari evaziga oliy farmonga muvofiq, sohibixtiyor hamda amir ul-umaro mansabi va unvoniga sazovor topilgan.

1406-yilning 20-mayida Shohruxga qarshi bosh ko'targan. 27-iyul kuni kelayotgan Shohrux askarlaridan cho'chib, Astrobod tomon yuzlangan. Oz muddatdan keyin Shohrux huzuriga bosh

egib kelgan. Shohrux ko'rsatgan iltifotlarga qaramay, Pir podshoh bilan til biriktirgan, takroran g'animlikni tanlagan. Shohrux mirzo qo'shini bilan kechgan to'qnashuvda mag'lubiyatga uchragan.

SAYFAL (SAYFUL) BARLOS

Sohibqironning urug'doshi va safdoshi. 1384-yilda Amir Temur Qandahor viloyatini unga boshqarish uchun topshirgan. 1388-yilda Oqbug'abek bilan birga Junayd buralday, Boyazid va Abu Said bisudni Dehli tomon qochishga majbur qilgan.

SAYFAL NIKUDARIY

1384-yili Amir Temur farmoniga asosan, nikudar (*nukuz*) eli yerlariga hokim etib tayinlangan. Pir Muhammad mirzo ibn Jahongir mirzoga tegishli qo'shinning atqqli sarkardalaridan biri. Hindiston fathi qatnashchisi.

SAYFUDDINBEK

Nukuz (*nikudar*) qavmining nufuzli vakili. Amir Temurning sodiq safdoshi, maslakdoshi, ishonchli do'sti. Atoqli lashkarboshi, hoji, munajjim.

Loy jangida Abbosbek, Jakubek va Muayyadbek bilan birga Temurbek qo'shinining so'l qanoti (*juvang'ar*) qunbulidan o'rin olgan. Shu yil amir Husaynga qarshi jo'natilgan qo'shinning ilg'or qismiga sardorlik qilgan.

1370-yilning 9-aprelida Movarounnahr taxtiga o'tirgan Temurbek Safuddinbekka saltanatdagi mavjud oliy harbiy rutbalarining navbatdagisi hisoblangan lashkar amiri (*amiri lashkar*) va tavachi mansabini bergan. Ayni kezlarda Sayfuddinbek Xizr yasavuriyning qiziga uylangan edi.

1371-yilda oliy farmonga muvofiq, Sayfuddinbek Samarqand dorussaltana dorug'asi etib tayinlangan. Ushbu lavozimda u 1375-yilga qadar faoliyat yuritgan. 1376-yilda Sayfuddinbek baytullohga haj safariga borgan.

Temurbek Hoji Sayfuddinning nafaqat harb san'ati, ilmi nujum, ilmi shariat, shuningdek diplomatiyadan ham yaxshi xabardorligini bilgan. Shu bois aksariyat hollarda uning zimmasiga mas'uliyatli muzokaralar olib borish vazifasini yuklagan. Sayfuddinbek sohibqiron yurishlarida ham faol ishtirok etgan. U asosan, Mironshoh mirzo qo'mondonligidagi qo'shin tarkibida harakat qilgan.

1387-yilda Ozarbayjondagi Boyazid qal'asi fathida qatnashgan.

1388-yilning ko'klamida Sirdaryodagi ko'priklarni tartibga solish ishiga Umarshayx mirzo hamda Eygu Temur bilan birgalikda mas'ul etib belgilangan. Shu yilning noyabrida Sayfuddinbek o'g'ruq (*oboz*) qo'mondoni etib tayinlangan va Samarqand tomon yo'lga chiqqan.

1391-yilning 18-iyunida Qunduzchada To'xtamishxon sipohi bilan kechgan jangda Sayfuddinbek Mironshoh mirzo qo'shini qunbuliga rahbarlik qilgan. Dashti Qipchoqdan zafar quchib Samarqandga qaytgan sohibqiron o'g'ruqni Toshkent orqali poytaxt Samarqandga eltish vazifasini yana Sayfuddinbekka topshirgan. 1392-yilning bahorida Sayfuddinbekning qizi Abubakr mirzoga nikohlangan. 1393-yilda Kavkazdagi Unik qal'asi tevaragida qarorgoh tikkan Amir Temur qoshiga Sayfuddinbek Samarqanddan kelib, saltanatdagi holatdan uni boxabar etgan.

1395-yilning 15-aprelida Terek daryosi yaqinida yuz bergan jang paytida kutilmaganda sohibqiron qo'l ostida turgan qismlar dushman iskanjasiga tushish xavfi paydo bo'lgan. Sayfuddinbek hamda Jahonshohbek sardorligidagi qismlarning pistirmadan chiqib, To'xtamishxon qo'shinining so'l qo'lga kuchli zarba berishi vaziyatning ma'lum darajada barqarorlashishiga olib kelgan. Temurbek jangda mag'lubiyatga uchragan To'xtamishni ta'qib etib, Rus va Cherkas hududlaridan o'tib, Elburs tog'i tomon jo'nab ketar ekan, Sayfuddinbekni takroran qo'shda qoldirgan.

1398-yili oliy farmonga asosan, Pir Muhammad mirzo ibn Jahongir mirzo Jata (*Mo'g'uliston*) zabtiga belgilangan. Hoji Sayfuddin Berdibek, Xudaydodi Husayniy, Shamsuddin Abbos qatori qirq ming askar bilan mirzo mulozimligiga tayinlangan. Bularning zimmasiga Ashpara qal'asi atrofini devor bilan mustahkamlash, xandaqlar yordamida ihota qilish vazifasi qo'yilgan.

1401-yilda sohibqiron Qorabog'da qish mavsumini o'tkazish uchun Naxchivondan o'tlanib, Qoravultepa mavzesiga yetgan kezda xabarchilar kelib, g'olib qo'shinga qo'shilish maqsadida Samarqanddan Muhammad Sulton mirzo hamkorligida yo'lga chiqqan Hoji Sayfuddinbekning Nishopurga yetgach, ikki-uch kunlik betoblikdan so'ng vafot etganini arza yetkazganlar.

Hoji Sayfuddinbekning naslidan sanalgan Valibek Sulton Husayn Boyqaroning ulug' begi darajasiga ko'tarilgan.

SAYFULMULK

Sayfuddinbek nukuzning o'g'li, sarkarda. 1383-yilda Amir Temur uni bir nechta nomdor beklar bilan birga Jata tomon yuborgan. Bu beklar Otaqum mavzesida bahrin elini talab, o'g'lon-ushoqlarini asir qilganlar.

SAODAT

Temurtoshning o'g'li. Rum yurishi chog'ida ko'p bor sarkardalik iste'dodi va mahoratini namoyon etgan. Sohibqiron vafotidan keyin amirzoda Sulton Husayn tarafida turgan. 1408-yilning aprelida Sulton Husaynga ont bergani, Amir Temur vasiyatiga amal qilmagani, Shohrux mirzoga suiqasd qilishga uringani bois amir Hasan So'fi tarxon tomonidan Bog'disda qo'lga tushirilgan va boshqa isyonchilar qatori oliy farmonga ko'ra o'ldirilgan.

Hamidulla DADABOYEV,
O'zbekiston Mudofaa vazirligi
huzuridagi Jamoatchilik kengashi
a'zosi, professor



“YANGI MO‘YNOQ – O‘ZBEKISTON GAVHARI”



Mo'ynoq tomonga hech yo'lim tushmadi, afsus. 2017-yil dekabrning so'nggi kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat safarida bo'ldim. Safarning foydali tomonlari ko'p. Yo'llar, taqdirlar, an'analar... bular barakali ijodga zamin yaratadi.

O'shanda men Mo'ynoq tumaniga ham o'tmoqchi edim. Manzura ismli hayot sinovlarini mardonavor yengib o'tayotgan zamondoshimiz haqida yozmoqchi bo'lgandim. Biroq u o'sha paytda Mo'ynoqda emasligi tufayli rejam amalga oshmay qoldi. Ichimda bir xijillik bilan ortga qaytdim. O'sha ayol bilan juda suhbatlashgim kelgan edi.

Qo'ng'iroq-Toshkent poyezdidagi yo'lovchi sherigim ichki ishlar tizimida xizmat qilar ekan. G'aroyib tasodif: ofitser aynan Mo'ynoqdan Toshkentga, uyiga qaytayotgan ekan. Bir yildan ko'proq bo'libdi, Mo'ynoqda xizmatni davom ettirayotganiga. Hayron bo'ldim. Harbiy xizmatchilarning yurtimizning turli hududlarida xizmat qilishlari odatdagi hol. Biroq ichki ishlar xodimlari ham shu tarzda xizmat qilishlarini bilmas ekanman.

U shularni gapirib bergan edi:

“– Rostini aytсам, meni poytaxtdan bu qadar uzoqqa jo'natishlarini kutmagan edim. Sevindim, deb aytolmayman. Biroq burch mas'uliyati ham bor edi. Bungacha Qoraqalpog'istonda hech qachon bo'lmagan edim. Poytaxtda tug'ildim, ulg'aydim, o'qidim, xizmatimni ham shu yerda boshladim, oilam, yaqinlarim shu yerda. Shunday kun keldiki, men hech qachon ko'rmagan, bilmagan chekka bir tumanda xizmatimni davom ettirishim kerak. Tabiiy, har xil xayollarga borasiz, tillari, an'analari farqli insonlar, qanday qabul qilishar ekan degan o'ylar...”

Meni juda yaxshi qabul qildilar. Odamlar oddiy, samimiy. Kichik narsalardan ham sevinish, baxtli bo'lishni shu yerda, mo'ynoqliklardan o'rgandim. Bu yerda o'g'irlik kabi jinoyatlarni uchratmaysiz. Nari borsa, er-xotin janjaliga aralashishga to'g'ri keladi. Bu holat ham uzoqqa bormaydi. Bir kun ichida yana er-xotin o'rtasida mehr jo'sh urgan, kechagi xafagarchilik unutilgan...

Tabiati Toshkentnikidan keskin farqli, albatta. Yashillik, ulkan dov-daraxtlar, gul-chechaklarga ko'zi ko'nikkan odam uchun bu hol yanada yaqqolroq bilinadi. Bir kuni tanishlarimizdan birining xonadoniga kirdik: hayrat! Hovlida rayhonlar, anvoyi chechaklar barq urib yotibdi. Xonadon bekasining gaplari hamon yodimda: “Yashab turgan joyini yashnatib qo'yish insonning o'ziga bog'liq!”

Men Mo'ynoqni, mo'ynoqliklarni yaxshi ko'rib qoldim. Ulardan ko'plari Toshkentdagi uyimizda qo'noq bo'ldilar. Ota-onam, ayolim, farzandlarim ularni qanday kutib olganlari, mehmondo'stliklari, ishlari bitishi uchun jon-dildan ko'maklashganlari haqida to'lib-toshib gapirib berganlarida men bu yerlarga ko'rinmas rishtalar bilan bog'langanimni his qildim”.

U yana ko'p narsalar haqida gapirib bergan edi. Keyinchalik men uni poytaxtning Mirzo Ulug'bek tumani ichki ishlar bo'limida xizmat qilayotganida uchratib qoldim. Bunisi boshqa mavzu. Bir vaqtlar Mo'ynoq ham yurt qaynagan joy edi. Orolning shovullab, mavjlanib, baliqlari o'ynoqlagan damlari o'tmishda qolgan. Hozirgi Orol Mo'ynoq shahridan 200 kilometr uzoqlashgan. Va bu uzoqlashish ishsizlik, tabiiy muvozanat buzilishi bilan yuzaga chiqadigan turli kasalliklar ko'payishiga sabab bo'ldi.

“Yangi Mo'ynoq” kitob-albomidan o'qiymiz: “Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti 2017-yilda e'lon qilgan ma'lumotda bir hududdagi 10 ming aholining 50 nafarida sil kasalligi aniqlansa, u hudud epidemik zona deb e'lon qilingan. Ammo ayni o'sha yillari Qoraqalpog'istonda bu nisbat 77 nafarni tashkil etgan. Mo'ynoq tumanida esa har 10 ming kishiga 130 nafardan bu xavfli kasallikka chalingan bemor to'g'ri kelgan.

Mo'ynoqliklarning muammosi faqat shu emasdi; kambag'allik, suvsizlik, ishsizlik, gaz

taqchilligi, transport qatnovi hamda ichki yo'llar muammolari qalashib yotardi.

Orol dengizining qurishi bilan tabiatdagi muvozanat buzildi. Binobarin, dengizning qurigan tubidan O'zbekiston va Qozog'iston hududida paydo bo'lgan 6 million gektar maydondan har yili necha o'n million tonnalab chang va zaharli tuzlar atmosferaga ko'tarilib, olis Pomir, Tyanshan, hatto Grenlandiya, Arktika muzliklari va Norvegiya o'rmonlariga qadar yetdi. Halokat miqyosi Markaziy Osiyo mintaqasidan tashqariga chiqib, global muammoga aylandi”.

O'qiganingiz shu parchadan ham ekologik falokatning ko'lami naqadar kengligini anglash qiyin emas. 2021-yil 29-iyulda O'zbekiston Prezidentining “Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2021-yil 18-maydagi “Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida”gi maxsus rezolyutsiyasini amalga oshirish choralari to'g'risida”gi qarori chiqdi. Bu muhim hujjat ekologik falokatdan barqaror rivojlanish sari xizmat qiladigan o'ndan ziyod yo'nalishni o'z ichiga oladi.

Bugungi Mo'ynoq. Kitob-albomda shunday bo'lim bor: “Yangi Mo'ynoq – Yangi O'zbekistonning gavhari”. Agar siz Mo'ynoq hayoti bilan, uzoqqa bormaylik, besh-olti yil avvalgi hayoti bilan tanish bo'lsangiz, keyingi yillarda bu yerda misli ko'rilmagan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilganidan hayratga tushasiz. Mo'ynoq tom ma'noda yurt gavhariga aylanganiga amin bo'lasiz.

Dastlabki va eng ulkan ishlardan biri Mo'ynoqqa toza ichimlik suvining keltirilishi bilan boshlandi. 101 kilometrli “Qo'ng'iroq-Mo'ynoq” suv tarmog'ining ishga tushirilishi 25 mingdan ko'proq aholini sutkasiga 7 ming kub metr toza ichimlik suvi bilan ta'minlash imkonini yaratdi.

O'qiymiz: “Suvning ikkinchi nomi – hayot, obi hayot! Mo'ynoq aholisining suv bilan, toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishi tumanda ijtimoiy, iqtisodiy, qishloq xo'jaligi, madaniy-maishiy sohalarining qayta tiklanishiga asos bo'ldi”.

Bir so'z bilan aytganda yana hayot jo'sh ura boshladi. Xayrli ishlar bir-biriga ulanib ketdi.

O'qiymiz: “Prezidentimizning Qoraqalpog' zaminiga 2022-yil fevral

oyidagi tashrifi bu o'lka tarixida yana bir yorqin sahifa ochdi. Bu yangi sahifa – Qoraqalpog'istonning eng uzoq tumani Mo'ynoqqa yangi havo yo'llari paydo bo'lishi bilan bog'liq. Osmonga ko'tarilgan 1-raqamli bort ilk marta Toshkentdan to'g'ri Mo'ynoqqa kelib qo'ndi.

Yangi zamonaviy aeroport binosini ko'rib hamma, ayniqsa nuroniylar hayratda edi. Ular 1947-yilda qurilgan aeroportni eslaydilar. Ilgari kichik samolyotlarni qabul qilgan va keyinchalik umuman ishlamay qolgan bu havo yo'llari bekati faoliyati yangidan boshlandi. Va bu aeroportga ilk bor O'zbekiston Prezidentining samolyoti kelib qo'ndi. Umid, ishonch keldi.

Bu olamshumul yangilik edi”.

Tekis va ravon yo'llar iqtisodiy rivojlanish omillaridan biridir. Havo yo'llari inchnun. Zamonaviy aeroportning ish boshlashi yo'l muammosiga barham berdi. Mo'ynoq Nukusdan 200 kilometr olisda joylashgan. Havo yo'li yarim kundan ko'proq vaqtni oladigan bu masofani keskin kamaytirdi.

“Yangi Mo'ynoq”dan o'qiymiz: “Ma'lumki, Orol dengizining qurishi dunyoning yaqin tarixida kamyob hodisalardan biri. Mo'ynoq shahridagi dengiz porti muzeyga aylangan. Aynan “Kemalar qabristoni” nomi bilan mashhur ushbu zanglagan, chirigan kemalar makonini, dengiz tashlab ketgan hududda paydo bo'lgan cho'l – Orolqumni, bu yerda yaratilayotgan “Yashil makon” – yangi o'rmonzorlarni ko'rish uchun har yili dunyoning turli qit'alaridan minglab sayyohlar tashrif buyurishadi”.

Kitob-albom Mo'ynoqning qiyofasi tubdan qay tariqa o'zgargani haqida hikoya qiladi. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan qushlar va jonivorlarning bu hududda paydo bo'la boshlagani ham katta quvonch bilan kutib olinmoqda. Bu yangi bir hayot sahifasidan darak, asli.

Kitobda “Dengiz chekinsa ham, inson chekinmaydi” degan bo'lim bor. Bu aynan bugungi Mo'ynoqqa tamoman mos keladi. Dengiz chekindi, ehtimol yana qaytar degan umidimiz ham yo'q emas, ammo Inson chekinmadi va bu yerda yana hayot qaynay boshladi.

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”

OSOVISHTA SARHAD

BARCHAMIZNIKI!

Yangi O'zbekiston – baxtiyor, saodatli ayollar va har jihatdan yetuk, barkamol avlodlar mamlakati. Ayniqsa, so'nggi yillarda jamiyatimiz siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlar faolligini oshirish, ularning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishi hamda bandligini ta'minlashga ko'maklashish, tadbirkorlikka keng jalb etish, huquq va manfaatlarini himoya qilish, sog'lig'ini saqlash, shuningdek gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlar sifatining tamomila yangi bosqichga chiqayotgani alohida e'tirofga sazovor.



Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari miqyosida 2024-yilda xotin-qizlar kengashlari faoliyatini tashkil etish va bu borada joylarda hokimiyat organlari hamda sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish yuzasidan tashkil etilgan videoselektor yig'ilishida ham ayni shu masalalar ishtirokchilarning diqqat markazida bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, viloyatlar va chegaraoldi tumanlari hokimlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari hamda Toshkent shahri va viloyat sog'liqni saqlash boshqarmalari boshliqlarining onalik hamda bolalikni muhofaza qilish bo'yicha o'rinbosarlari, harbiy qismlarda mazkur yo'nalishda faoliyat olib borayotgan mas'ullar ishtirokida o'tkazilgan videomuloqot avvalida 2023-yilda hamkorlikdagi chora-tadbirlar dasturi asosida

amalgaga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar sarhisob qilindi.

Xususan, o'tgan yil davomida harbiy xizmatchilarning oilalaridagi muammolarini o'rganib, bartaraf etilishida amaliy yordam ko'rsatish maqsadida olis chegaraoldi hududlariga amalga oshirilgan 1 000dan ortiq xizmat safari davomida 7 000ga yaqin xonadonga tashriflar uyushtirilib, 2 000ga yaqin davra suhbat o'tkazilgani, 600 nafarga yaqin ayol ish bilan ta'minlanishida, ularning 550 nafardan ortiq farzandi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga, 350 nafarga yaqini maktabga joylashtirilishida amaliy yordam ko'rsatilgani, shuningdek hamkor tashkilotlar bilan birgalikda harbiy xizmatchilarning 17 000 nafardan ortiq oila a'zosi tibbiy ko'rikdan o'tkazilgani ta'kidlab o'tildi.

– Sarhisob natijalaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, amalga oshirilgan ishlarning salmog'i yildan yilga ortib bormoqda. Albatta, bularning barchasi hamkorlikdagi tizimli ishlarimiz samarasi. Biz bundan keyin ham tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, o'zaro kelishuvlar asosida har qanday yordam va ko'makka tayyormiz. Zero sarhadlarimiz posbonlari chegaralarimizdagi osoyishtalikni ta'minlash uchun mas'ul bo'lsalar, biz ularning oilalaridagi xotirjamlikni ta'minlashga mas'ulmiz, – deydi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Ozoda Parpiboyeva.

Sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari Elmira Bositxonovanning oila

farovonligini ta'minlash, ona va bola salomatligini qay yo'sinda muhofaza qilish hamda sog'lom turmush tarzini ta'minlashning ahamiyati xususidagi ma'ruzasi hamda namoyish etilgan ko'rgazmali yo'riqnoma slaydlari foydali tavsiyalarga boyligi bilan ahamiyatli bo'ldi.

Tadbir davomida viloyatlar kesimidagi soha mutasaddilarining fikr-mulohazalari ham tinglanib, olib borilayotgan ishlar ko'lamini yanada kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishtirokchi vazirlik va idoralar tomonidan hamkorlikda amalga oshirilishi xususida kelishib olindi.

Shuningdek, muloqot davomida Chegara qo'shinlaridagi harbiy xizmatning o'ziga xosligi, bo'linmalar aholi punktlaridan uzoqda, qiyin iqlim sharoitli, tog'li va cho'l hududlarida joylashgani, harbiy oila bekalarining ko'pchiligi yosh bo'lishiga qaramay, ota-onalari va qarindoshlaridan uzoqda istiqomat qilgan holda, uy-ro'zg'or yumushlari, farzand tarbiyasi bilan deyarli mustaqil ravishda shug'ullanishlariga to'g'ri kelishini inobatga olgan holda, ular uchun turli tavsiya va yo'riqnomalar ishlab chiqilib, amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishi maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi.

Shu asosda kelgusida olis hududlardagi bo'linmalarda istiqomat qilayotgan harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari uchun muntazam ravishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilishi, ularning ijtimoiy himoyasi va tibbiy ta'minoti



darajasini yanada yaxshilashga alohida e'tibor qaratilishi muhimligi belgilanib, amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning ijro mexanizmi yuzasidan taklif va mulohazalar bildirildi.

Tahliliy xulosalar va savol-javoblarga boy tarzda kechgan tadbirning badiiy qismida san'atkorlar hamda harbiy xonandalar tomonidan ijro etilgan vatanparvarlik, yurtga sadoqat va mehr-muhabbatni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Shu kuni tadbir qatnashchilari Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari tarixi muzeyida bo'lib, bu yerdagi eksponatlar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldi.

Bir so'z bilan aytganda, oila va xotin-qizlar bilan ishlovchi soha vakillarini bir yerga jamlagan mazkur videomuloqot, kelgusida o'zaro hamkorlik ko'priklarini yanada mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

XORAZMDA



Urganch shahridagi Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ga a'zo mamlakatlarning harbiy akademik litsey va maktablari o'quvchilari o'rtasida matematika fani bo'yicha xalqaro olimpiada o'tkazildi.



Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari harbiy akademik litsey va maktablari o'quvchilarining aniq fanlarga qiziqishini oshirish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda o'zaro bahslashish imkonini berayotgan matematika fani bo'yicha xalqaro olimpiadada O'zbekiston, Rossiya, Belarus va Qirg'iziston davlatlarining o'quvchilari o'zaro kuch sinashdi.

O'zbekiston Respublikasi sha'nini xalqaro arenada bu yil Mudofaa vazirligiga qarashli ikkita harbiy akademik litsey – Jaloliddin Manguberdi nomidagi hamda Farg'ona "Temurbeklar maktabi" jamoalari himoya qildi.

Olimpiada MDHga a'zo davlatlarning harbiy akademik litseylari va maktablarining 8-, 9-, 10- va 11-sinf o'quvchilari o'rtasida tashkil etilib, har bir yo'nalishda 8 nafar ishtirokchidan tashkil topgan jamoalar shakllantiriladi. O'zbekiston va Qirg'izistonda Mudofaa vazirliklarining harbiylashtirilgan davlat maktablari mavjud bo'lmagani bois harbiylashtirilgan maktablarning 8- va 9-sinflari o'rtasidagi bahslarda faqat Rossiya va Belarus davlatlarining jamoalari bellashdi. 10- va 11-sinflar o'rtasida kechgan bellashuvda esa 4 ta jamoa qatnashdi.

Urganch xalqaro aeroporti orqali mamlakatimizga uchib kelgan xorijiy jamoa vakillari Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyda tantanali kutib olindi va ko'tarinki kayfiyatda olimpiadaga start berildi.

Xalqaro olimpiada reglamentiga ko'ra, ishtirokchilar 4 akademik soat davomida auditoriyaga biriktirilgan mas'ullar nazorati ostida birin-ketin topshiriqlarni bajardilar. Jami 6 savoldan iborat matematik misol va masalalarni o'quvchilar o'z bilim va salohiyatiga tayangan holda yechdi. Xolislik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida ishtirokchilar javob varaqalariga ism-familiyasi hamda mamlakat nomini yozmay, o'zlariga avvaldan berilgan maxsus shifrlangan raqamlarni qayd etdi. Barcha ishtirokchi mamlakat vakillaridan iborat hakamlar hay'ati tekshirib baholagan javob egasining yashirinligi shu orqali ta'minlandi va odillik tamoyiliga qat'iy e'tibor qaratildi.

MDHga a'zo mamlakatlar mudofaa idoralarining kelishuviga muvofiq, harbiy litseylar o'quvchilari o'rtasida o'tkazib kelinayotgan fan olimpiadalari eng sara o'quvchilarni aniqlash va rag'batlantirish, harbiy ta'lim sohasida o'zaro tajriba almashish hamda o'sib kelayotgan yosh avlod vakillarining intellektual salohiyatli bo'lib voyaga yetishini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2023-yilda Urganch shahrida el-yurt istiqloli uchun kurashgan, bunga o'z hayotini bag'ishlagan ajdodimiz nomini ulug'lash, o'sib kelayotgan yosh avlod vakillarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida yangidan bunyod etilgan Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyda olimpiada dasturi doirasida



XALQARO OLIMPIADA



o'quvchilar o'rtasida sport musobaqalari, Urganch va Xiva shaharlarining diqqatga sazovor joylariga sayohat, "Zakovat" intellektual o'yini hamda madaniy tadbirlar o'rin oldi. Dunyoga algebra fanini tanitgan al-Xorazmiy singari buyuk allomalarga beshik bo'lgan O'zbekiston tarixi va buguni haqidagi hujjatli film, YUNESKONing madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan Ichan qal'adagi me'moriy yodgorliklar xorijlik o'quvchilarda unutilmas taassurot qoldirdi.

Tantanalı taqdirlash marosimida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy kadrlar tayyorlash boshqarmasi bo'lim boshlig'i polkovnik Ulug'bek Ahmedov, Urganch davlat universiteti rektori Bahrom Abdullayev, Sankt-Peterburg Suvorov harbiy bilim yurti, Minsk Suvorov harbiy bilim yurti, Qirg'iz milliy harbiy litseyi delegatsiyalari vakillari mazkur olimpiada mamlakatlararo harbiy hamkorlik va o'zaro do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidladi.

Xalqaro olimpiadaning 10-sinflar o'rtasidagi yakkalik bahslari natijalariga ko'ra, Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyining 1-bosqich o'quvchisi Fayziddin Yaxshiboyev faxrli 1-o'rinni egalladi. 2- va 3-o'rinlar Sankt-Peterburg Suvorov harbiy bilim yurti o'quvchilari Dmitriy Stafeyev va Kiril Zverevga nasib etdi. 11-sinflar o'rtasida esa Sankt-Peterburg Suvorov harbiy bilim yurti o'quvchilari Ivan Seliverstov birinchi, Andrey Kuzmin 3-o'rinni olgan bo'lsa, Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyining o'quvchisi Yoqutbek Bahodirov 2-o'ringa sazovor bo'ldi. 8-9-sinflar o'rtasida to'plangan ballar yig'indisiga ko'ra, Rossiya Federatsiyasi vakillari eng yuqori pog'onani egallagan bo'lsa, belaruslik o'quvchilar 2-o'ringa munosib deb topildi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, umumjamoa hisobida Belarus Respublikasi vakillari 3-o'rinni qo'lga kiritdi. Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi (O'zbekiston) jamoasi 2-o'rinni va Rossiya Federatsiyasidan kelgan o'quvchilar 1-o'rinni egalladi.

G'olib va sovrindorlarga diplom va qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

**Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"**

KORRUPSIYA — TARAQQIYOT KUSHANDASI



Korrupsiya bu mansab mavqeyidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq jinoyat turi hisoblanib, xufiyona iqtisodiyotning asosiy turlaridan biridir. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat xizmatchilari tomonidan shaxsiy manfaatlarni ko'zlab, boylik orttirish maqsadida xalqdan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo'lga kiritish tushuniladi. Umuman olganda, davlat amaldorlarigina emas, balki davlat tashkilotida ishlamaydigan fuqarolar ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari bo'lishi, pora – pul emas, balki boshqa narsa evaziga ma'lum xizmatni amalga oshirishlari mumkin.

Etimologik jihatdan "korrupsiya" atamasi "buzish, pora evaziga og'dirish" degan ma'noni anglatadigan lotincha "corruptio" so'zidan kelib chiqqan. Yuridik ensiklopediya mualliflarining ta'kidlashicha, "korrupsiya – mansabdor shaxslar tomonidan

ularga berilgan huquq va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyatdir.

Darhaqiqat, korrupsiya ildizlari davlat xizmatini tashkil etishdagi nuqsonlarga va davlat xizmatchilarining o'ziga xos psixologiyasiga borib taqaladigan ijtimoiy hodisa. Unga qarshi avvalo, ma'muriy-huquqiy va tashkiliy-boshqaruv chora-tadbirlari ko'rilishi zarurligidan darak beradi.

Korrupsiya fuqaroning davlat vakili bilan ma'muriy munosabatlari ma'no-mohiyatini o'zgartiradi va jamiyat uchun ham, davlat uchun ham salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi. "Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo'sinda g'ayriqonuniy shaxsiy naf ko'rish maqsadida o'z xizmat mavqeyidan foydalanishda ifodalanadigan ijtimoiy hodisa".

Davlatimiz rahbari "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan fuqarolik jamiyati institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan "O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunni qabul qilish fursati yetganligini ta'kidlab o'tgan edi.

Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan kuchli jamoatchilik nazoratini amalga oshirish fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim shartlaridan hisoblanadi. Zotan, fuqarolarning faolligi,

ijtimoiy hodisalarga befarq bo'lmasligi hamda har bir davlat xizmatchisining o'z faoliyatini jamoatchilik nazorati ostida ekanini chuqur his etib borishi fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning muhim shartidir.

Buni mamlakatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug'ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko'paytirsak, amaldorlarning zo'ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo'l yo'q. Shu ma'noda aytganda, "O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi ahamiyati beqiyosdir.

Umuman, jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat hokimiyati organlariga muayyan qarorlarni qabul qilish bo'yicha murojaat etish, davlat hokimiyati organlari vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha so'rovlarni amalga oshirish, davlat hokimiyati organlari va mahallalar hududlaridagi korxona va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitish kabi shakllarda yo'lga qo'yilgani o'z samarasini bermoqda.

Qolaversa, bugungi kunda davlat dasturlari talablarining fuqarolar yig'ini hududidagi ijrosini ta'minlashda jamoatchilik guruhlarini tuzish va o'rganish, natijalari bo'yicha tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlari hisobotlarini eshitish va shu orqali aniqlangan kamchiliklarni

bartaraf etish choralari ko'rish, shuningdek mahalliy davlat organlari faoliyatiga ko'maklashish tadbirlari samarali olib borilmoqda. Bu esa, jamoatchilik nazoratining jamiyatda ijtimoiy adolatning qaror topishi, shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o'zaro mas'uliyat va javobgarlikka xizmat qiluvchi asosiy omil ekanidan dalolatdir.

Respublikamizda jinoyatchilikning sabablarini aniqlash choralari ko'rilmogda, fosh etilgan korrupsiyachilar qattiq jazolanmoqda. Mamlakat ichidagi jinoyatchilik doimo davlat tomonidan qattiq nazorat qilib boriladi. Jinoyatchilik keng avj olib ketishiga va amaldorlarning beboshligiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bir qator uzoq muddatli chora-tadbirlar ishga solingan. Ular jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyamizni belgilab beradi.

Jinoyatni jazolashdan ko'ra, oldini olish maqsadida profilaktik tadbirlarning olib borilishi qay darajada oqilonaligi allaqachon isbotlangan. Zero O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoyatlarning oldini olish jinoyat qonunining asosiy vazifalaridan biri sifatida bejiz belgilab qo'yilmagan.

Korrupsiyaga qarshi kurash maqsadlariga faqat jinoyat-huquqiy vositalar bilan erishib bo'lmasligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. O'ylaymizki, bunday ma'naviy buzilish holatlariga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki jamiyat – barcha fuqarolarimiz mas'uldirlar.

Mudofaa vazirligi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi

Kelajagimiz egalari

Vatanparvarlik sayli

Namangan harbiy prokuraturasi tomonidan Pop tumanining chegaraoldi va olis hududlaridagi mahallalarda kuch tuzilmalari bilan hamkorlikda vatanparvarlik sayli o'tkazildi.

Hududdagi 18-umumta'lim maktabida o'tgan tadbirda 34-, 48-, 54- va 72-maktab o'quvchilari qamrab olindi.

So'z olganlar tomonidan yoshlar tarbiyasida oila, mahalla va maktabning o'rni, mamlakatimizda yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar va joriy qilingan imtiyozlar e'tirof etildi.

Tadbir davomida yoshlar o'rtasida arqon tortish, tosh ko'tarish, kamondan otish kabi turli sport musobaqalari tashkil etildi.

Yakunda faxrli o'rinlarni egallagan va sovrindor ishtirokchilarga esdalik sovg'alari topshirildi.

**Adliya kapitani
Muhammadsiddiq ODILJANOV,
Namangan harbiy prokuraturasi
katta tergovchisi**

So'ragan edingiz

HUQUQIY MASLAHAT

Savol: Bir oylik xizmatga borganlarni harbiy xizmatga yoki organ sohasiga ishga olishadimi?

Javob: Harbiy xizmatga va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xizmatga qabul qilishda nomzodlarga muddatli harbiy xizmatni va safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmatni o'taganlik bo'yicha cheklov mavjud emas.

Ma'lumot o'rinda aytib o'tish kerak, harbiy xizmatga yaroqli, shu jumladan cheklovlar bilan yaroqli bo'lgan hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo'lmagan, biroq Qurolli Kuchlar safiga navbatdagi muddatga chaqirilmagan shaxslar safarbarlik chaqiruvi rezervi safiga olinadi.

Harbiy xizmatning ushbu turi hududiy prinsip asosida oylik yig'inlar tarzida tashkil



etiladi hamda chaqiriluvchilar tomonidan Mudofaa vazirligining maxsus hisob varag'iga pul badallari kiritilishini nazarda tutadi.

Bu xizmat safiga shaxslar 27 yoshga to'lgunga qadar olinadi va har yilgi harbiy yig'inlarga jalb etilishi mumkin, favqulodda vaziyatlar yoki O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz ro'y bergan taqdirda esa haqiqiy harbiy xizmatga chaqiriladilar.

Oylik yig'inni o'tagan fuqarolar Qurolli Kuchlar rezerviga o'tkaziladi.

**O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokuraturasi
axborot xizmati**

SIRLI BUNKER

1988-yilning may oyi edi, o'sha paytlari men ishdan so'ng Toshkent politexnika instituti Jizzax filialining kechki bo'limida tahsil olardim. Menga mudofaa ishlari bo'limidan chaqiruv qog'ozi keldi. Birinchi bosqichni yakunlamasdan harbiy xizmatga ketishimga to'g'ri keldi.



Jizzax temiryo'l vokzalidan o'tanam, yaqinlarim va do'stlarim meni kuzatib qolishdi. Poyezdda Samarqandga borib tushdik va u yerdan avtobusda poligonga yetib keldik. Bizlarni harbiy dala chodirlariga joylashtirishdi. Ertasiga harbiycha kiyim-bosh berishdi. "Panama" bosh kiyimi berishgani uchun Afg'onistonga yuborsa kerak, deb o'yladim. Dala tibbiy punktida yana bir bor harbiy xizmatga yaroqliligimizni tekshirishdi va komissiya tarkibidagi ofitserlar tomonidan yakka tartibda shaxsiy suhbat orqali bizni o'rganishdi.

Ikki kun dala poligonida bo'ldik va uchinchi kuni Samarqand aeroportidan ikkita samolyotda 300 ga yaqin chaqiriluvchini olib ketishdi. Dnepropetrovskda biroz tanaffusdan so'ng Germaniya Demokratik Respublikasiga qarab uchdik. To'rtinchi kuni ertalab harbiy aerodromga qo'ndik. U yerdan bir ofitser va praporshik boshchiligidagi ancha piyoda yurib, o'rmonga kirib bordik. Bizlarni yuk vagonlariga chiqarishdi. Vagon tuynugidan va tirqishlaridan Yevropa arxitekturasiga xos qurilgan binolarni tomosha qilib ketdik. Anchadan keyin belgilangan

manzilga yetib keldik. Bu yer GDRda joylashgan Frankfurt (*Oder*) yig'in va jo'natish punkti ekan. Devorining balandligiga qaraganda, bu yerdan qush uchib chiqib ketmasa, inson zoti chiqib keta olmas edi. Yetib kelishimiz bilan harbiy shifokorlar yana tibbiy ko'rikdan o'tkazishdi va yuqumli kasalliklarga qarshi profilaktik emlash ishlarini amalga oshirishdi. Ertasiga ism va sharifimizni mikrofon orqali e'lon qilishdi va raqamlangan maydonchalarga yig'ilishimizni buyurdi. Hammamiz har tarafga bo'linib ketdik. U yerda men boradigan harbiy qismning vakili kutib turar edi.

Harbiy qismga tegishli bo'lgan avtobusda turli millatga mansub o'ttizdan ortiq chaqiriluvchini Berlinga boruvchi avtotrassadan, ya'ni poytaxtdan 89 km uzoqlikdagi Brandenburgagi Shtoltsexayn aholi yashash punktiga yaqin qalin o'rmon ichiga olib kelishdi. Bizlarni harbiy qism komandirining siyosiy ishlar bo'yicha o'rinbosari podpolkovnik A. Sotulenko kutib oldi.

Hayotimda yangi sahifa ochildi. Men Sharqiy Germaniyadagi Sovet qo'shinlarining g'arbiy guruhi tarkibidagi harbiy qismda edim. Hududi 150 gektardan ziyod bo'lgan bu harbiy qism 20 ta bino va uch qatorli perimetr ichida qattiq qo'riqlanadigan ikkita obyektidan iborat edi.

Sekin-asta motoo'qchilar vztvodida harbiycha hayotga o'rgana boshladim. Asosiy e'tibor harbiy intizomga, jangovar va jismoniy tayyorgarlikka qaratilgandi. Mashg'ulotlar juda og'ir kechardi, ekipirovka va qurol-aslaha bilan besh, gohida o'n kilometr ga og'ir kirza etiklarda yugurishga majbur edik. Orqada qolib ketgan askar halok bo'lgan yoki asirga tushgan hisoblanar edi. Shuning uchun shaxsiy tarkib har kuni ertalabki badantarbiyada besh kilometr masofaga yugurar va belgilangan normativni bajarishi shart edi. Jangovar texnikalarda harakatlanish, otish maydonida o'qotar qurollardan foydalanish hamda ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalalanish kabi mashqlarni bajarardik. Obyekttni qo'riqlash va mudofaa qilish uchun esa alohida tayyorgarlik mashqlari amalga oshirilardi.

Jismoniy hamda harbiy tayyorgarliklardan o'tganimizdan so'ng bizga maxfiy obyekttni qo'riqlash va mudofaa qilish vazifasi topshirildi. Men uchun birinchi marta mazkur obyekttni qo'riqlash navbati tungi soat 22:00 dan 24:00 ga qadar to'g'ri keldi. Qalin o'rmon ichida yashiringan va yer ostiga qurilgan bu obyekt bunker edi.

Mazkur inshoot Sovet Ittifoqi harbiy muhandislari tomonidan loyihalangan. Qurilish ishlari sir tutilgan. Mahalliy aholining ortiqcha e'tiborini tortmaslik maqsadida qurilayotgan obyekt mavjud sovet harbiy qismlarining orasiga joylashtirilgan va bu yerda "kabelli

aloqa stansiyasi" qurilmoqda degan yolg'on xabarlar bilan chalg'itilgan.

Inshootlar yaxlit tarzda temir-betondan qurilgan va ularga ikki tomondan mustahkam, qalin germetik darvozalar o'rnatilgan. Unga ommaviy qirg'in yadro qurollari maxsus konteynerlarda joylashtirilgan va 20 yil davomida jangovar qo'llashga shay holda saqlangan. Bunker bombaga chidamli va uning ta'siriga bardosh bera oladi. Bunker ko'plab xizmat xonalaridan, ya'ni laboratoriya, suv zaxiralari, siqilgan havo, shamollatish qurilmasi, elektr qutisi va tok ishlab chiqaradigan generator hamda hojatxonadan iborat bo'lgan.

Har bir bunkerga faqat sovet harbiylari tomonidan muntazam xizmat ko'rsatib kelingan va 20 yil mobaynida bu yerga hech bir nemis fuqarosining qadami tegmagan. Tasvirga olish va suratga tushish mumkin emasdi. Harbiylarga va ularning oila a'zolariga mahalliy aholi bilan muloqot qilish taqiqlangandi. Pochta orqali keladigan xatlar tekshiruvdan o'tar va o'qib ko'rilardi.

1989-yilning 9-noyabr kuni Sharqiy va G'arbiy Berlinni ajratib turuvchi devor mahalliy aholi tomonidan qulatildi. Sovet Ittifoqi davlati rahbariyatining kelishuviga binoan Germaniya Demokratik (GDR) va Federativ Respublikasi (GFR) birlashish arafasida edi. Sovet qo'shinlari Sharqiy Germaniyadan chiqish to'g'risida buyruq oldi.

O'sha yili dekabr oyida 13 nafar muddatli harbiy xizmatchini va bir nafar ofitserni harbiy qism shtabiga chaqirtirishdi. Ularning orasida men ham bor edim. Harbiy qism komandiri va shtab boshlig'i hamda komandirning siyosiy ishlar bo'yicha o'rinbosari bizga vagonlarga ortilgan harbiy yukni, ya'ni eshelonni SSSRga qadar qo'riqlab borishimiz to'g'risida topshiriq berdi va xizmat safari rasmiylashtirildi. Kechasi harbiy qism "Trevoga" signali bo'yicha harakatga keltirildi. Hududga maskirovka qilingan yopiq kuzovli harbiy yuk avtomobillari kirib kela boshladi.

Tunda yuk ortilgan avtomobillar kolonnasi marsh yurishni amalga oshirdi. Kolonnani jangovar texnikalarda qo'riqlab borish va komendantlik xizmati yo'lga qo'yildi. Belgilangan manzilga yetib kelishimiz bilan yuk vagonlariga ko'zimiz tushdi. O'rmon ichida joylashgan bu hudud boshqa harbiy qismga tegishli bo'lib, tashqi tomondan soqchilar bilan qo'riqlanayotgani yaqqol ko'rinib turar edi. Bizni vagonlar atrofiga mudofaani tashkil qilish uchun joylashtirishdi. Yuk vagonlarining ichki tomoni zirh bilan qoplangan va uni o'q teshib o'ta olmasdi. O'n sakkizta yuk vagonidan o'n beshtasiga 60 ta maxsus konteyner joylashtirildi.

Erta tongda xatarli xizmat safariga otlandik. Bizlar o'sha paytda 19 yoshda edik. Boshliq etib tayinlangan ofitser esa chamasi 26 yoshlar atrofida edi. Har birimizda Kalashnikov avtomati va 60 dona

patron, ofitserda PM to'pponchasi bor edi xolos. Eshelonning o'rtasiga isitiladigan vagon, boshi va oxiriga esa soqchilar uchun tamburli bo'sh yuk vagonlari ulangan edi. Quruq oziq-ovqat bilan ta'minlandik.

Eshelon Sharqiy Germaniya bo'ylab Polsha chegarasiga yetib keldi va Oder daryosidan o'tib to'xtadi. Bizni Sovet harbiy komendaturasi qarshi oldi. Tekshiruvdan o'tganimizdan so'ng yo'limizda yana davom etdik. Poyezd shahar va qishloqlardan, aholi yashash punktlaridan, o'rmonlardan hamda daryolardan gohida tez, gohida sekin o'tib borardi. Poyezdimiz temiryo'l stansiyalarida ba'zan uzoq turib qolar, ba'zan qisqa muddatga to'xtab o'tardi. Shu fursat oralig'ida tezkorlik bilan soqchilar almashinuvi amalga oshirilardi. Haligacha yodimdan chiqmaydi, qaysidir bir stansiyada tungi soat 24:00 atrofida soqchilik navbati menga yetib keldi. Yog'ochdan ishlangan yuk vagonining tamburidaman. Tamburning yon-atrofi ochiq va tor. Ob-havo sovuq, qor aralash yomg'ir yog'a boshladi. Poyezdning tezligi oshib borar va hech bir stansiyada to'xtamay ketib borardi. Old tomonda bo'lganligim uchun yuzimga sovuq qor va yomg'ir kelib urilar, shinelim esa jiqqa ho'l bo'lib ketgandi. O'shanda poyezd ertalabki soat 05:00 da to'xtagandi.

1989-yil 24-dekabr kuni Polsha va Belarus chegarasida, ya'ni g'arbiy Bug daryosi yonida temir konstruksiyadan ishlangan ko'priklari oldida Sovet chegarachilari tomonidan to'xtatildik. Tekshiruvlar va bojxona ko'rigidan o'tdik. Bojxona deklaratsiyasini to'ldirdik.

Ko'rgan kinolarim xayolimdan o'tdi. Mana o'sha tarixiy joy, aniqrog'i fashistlar tomonidan 1941-yilning iyunida buzib o'tilgan SSSR chegarasi. Daryoning u tomonida esa Qahramon qal'a - Brest. Brest temiryo'l stansiyasida vagonlarimizning g'ildiraklari almashtirildi, so'ngra lokomotiv eshelonni xoli bir hududga sudrab bordi. U yerda bizlarni Moskvadan yuborilgan bir guruh harbiy xizmatchilar kutib turar edi. Muhim harbiy yuk manziliga yetkazildi va topshiriq bajarildi.

Xizmatim davomida ikki marta bunday muhim topshiriqni bajarishda qatnashganman. 1990-yilning 27-fevralida "За отличие в военной службе" medali bilan taqdirlandim. Hayotimda unutilmas voqealardan biri xizmat safaridan qaytayotganimda Germaniyada hamqishlog'imni, ya'ni sinfdosh do'stimni uchratib qolganim bo'ldi.

1990-yil may oyining oxirida armiya safidan rezervga bo'shatildim va ona Vatanim O'zbekistonga qaytib keldim.

**Qurolli Kuchlar xizmatchisi
Baxtiyor NURALIYEV,
Jizzax viloyati mudofaa
ishlari boshqarmasi xodimi**

NUKUS VA URGANCHDA gʻoliblar aniqlandi

Mamlakatimizdagi barcha umumta'lim maktablaridagi “Vatan tayanchi” otryadiga a'zo bo'lgan bitiruvchi sinf o'quvchilari o'rtasida mudofaa vazirining kubogi uchun o'tkazilayotgan “Vatanparvarlar” harbiy sport musobaqasi yoshlarda harbiylikka havas uyg'otib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga hissa qo'shmoqda.

Nukus garnizonidagi harbiy qismlardan birida negizida o'tkazilgan musobaqaning Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichi 17 ta shahar va tumandan eng sara jamoalarni saflab berdi. O'quvchilardagi hayajon, g'alabaga bo'lgan shijoat, harbiycha qat'iyat bellashuvning har bir shartida ko'zga yaqqol tashlanib turdi.

Musobaqaning ochilish marosimida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonining o'rinbosari polkovnik Dilshod Ilhomov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Yoshlar ittifoqi va “Vatanparvar” tashkiloti Qoraqalpog'iston Respublikasi kengashi a'zolari hamda boshqa davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, chaqiruvga qadar yoshlarni tayyorlash fani o'qituvchilari va o'quvchilar qatnashdi. So'zga chiqqanlar musobaqa ishtirokchilariga zafar yor bo'lishini tiladi.

Harbiy sport musobaqasining “Mohir mergan” shartida yoshlar sport miltig'idan nazorat otish mashqi orqali merganlik mahoratini namoyish etdi. 5 nafar o'g'il bola ishtirok etgan “Turnikda tortilish” shartida 4 daqiqa vaqt ichida kuchlarini sinovdan o'tkazib, eng ko'p natija qayd etishi kerak bo'ldi.

“Harbiylashtirilgan estafeta” deb nomlangan 3-shartda ishtirokchilar avtomatni noto'liq qismlarga ajratishi va yig'ishi, gazga qarshi niqobni kiyishi va o'q-dori qutisini ko'tarib yugurishi lozim edi. Bu shartda jamoadan 4 nafar ishtirokchi qatnashdi. Musobaqaning “Jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatish” deb nomlangan 4-shartida ikki nafar ishtirokchi 50 metr masofaga zambilni ko'targancha yugurib, marrada yotgan shartli jabrlanuvchiga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatdi. Shundan so'ng jabrlanuvchini zambilga ortib, finish tomon yugurdi.

“Safda qo'shiq aytish” deb nomlangan keyingi shartda jamoalar safda shaxdam qadamlar bilan yurib, harbiycha qo'shiqlarni jonli ijro etdi. Bu shartda jamoalar saf elementlarini nizom qoidalarini asosida bajarishi, safda yurishi, qo'shiq kuyilishi, ust-bosh kiyimi uchun ham baholandi. “Temur tuzuklari” bilimdoni” deb nomlangan shartda o'quvchilar elektron dastur orqali 15 tadan 30 tagacha bo'lgan test savoliga javob berishdi.

“Vatan tayanchi yulduzlari” deb nomlangan yangi shartda jamoalarning san'atkorlik mahorati sinovdan o'tkazildi. Unda 5 nafari kam bo'lmagan tarkibda qatnashdi.

Nihoyat, hayajonli damlar yetib keldi. Dastlab musobaqa shartlarida alohida ko'rsatkichlarga erishgan o'quvchi-yoshlar va jamoalar taqdirlandi. Unga ko'ra, “Eng kuchli sportchi”, “Temur tuzuklari” bilimdoni”, “Eng yaxshi mergan” va “Eng yaxshi ijrochi” kabi bir qator nominatsiyalar bo'yicha yoshlar yakkalik va jamoaviy tartibda mukofotlandi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, Qorao'zak tumanining “Temuriylar” jamoasi

Taqdirlash marosimida g'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan kubok, medal, diplom, faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alar bilan mukofotlandi.

Shuningdek, Urganch shahridagi ko'rkam “Yoshlar” sport majmuasida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi, Xorazm viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi, O'zbekiston yoshlar

Musobaqada 11 ta tuman hamda Urganch va Xiva shahri bosqichida g'olib bo'lgan maktablarning yuqori sinflarida tahsil olayotgan o'quvchilardan iborat jami 13 ta jamoa shiddatli bahslarda o'zaro kuch sinashdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, Yangiariq tumanidagi 5-umumta'lim maktabining “Jasorat” jamoasi uchinchi o'rinni egalladi. Gurlan tumanidagi 42-umumta'lim maktabining “Sher” jamoasi 2-o'ringa loyiq deb topildi. Musobaqaning mutlaq g'olibiga esa Xonqa tumanidan kelgan 40-umumta'lim maktabining



shohsupaning uchinchi pog'onasidan joy oldi. Kegeyli tumanidan kelgan “Lochin” jamoasiga bu safar ozgina imkoniyat yetmadi va ular faxrli 2-o'ringa loyiq deb topildi. Musobaqaning mutlaq g'olibligiga Qonliko'l tumanining “Lochinlar” jamoasi sazovor bo'ldi.

ittifoqi va Yoshlar ishlari agentligi hamda “Vatanparvar” tashkiloti viloyat kengashlari bilan hamkorlikda “Vatan tayanchi” otryadi a'zolari ishtirokida “Vatanparvarlar” harbiy sport musobaqasining Xorazm viloyati bosqichi o'tkazildi.

“Vatanparvarlar” jamoasi aylandi va yakuniy bosqichda mudofaa vaziri kubogini Xorazmga olib kelish uchun bellashuvlarda ishtirok etish yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining o'quv sport-texnika klublari tomonidan namoyish etilgan texnikalar hamda Shimoli-g'arbiy harbiy okrugga qarashli harbiy qism tomonidan namoyish etilgan qurol-aslaha ko'rgazmasi yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

“JANUB QALQONLARI”

JAMOASI KEYINGI BOSQICHDA



Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Termiz garnizonida joylashgan harbiy qismda Surxondaryo viloyati shahar va tumanlaridagi umumta'lim maktablarining 10-, 11-sinfida tahsil olayotgan “Vatan tayanchi” otryadi a'zolari o'rtasida “Vatanparvarlar” harbiy sport musobaqasining viloyat bosqichi o'tkazildi.

Unda viloyatning Termiz shahri va 13 ta tumanidan tashrif buyurgan jamoalar o'zaro bellashdi. Musobaqaning tantanali ochilish marosimida ta'kidlanganidek, yosh avlodni buyuk ajdodlarimiz kabi mard, jasur, sadoqatli, jismonan baquvvat, bilimli, vatanparvar, barkamol avlod etib tarbiyalashda bu kabi harbiy sport musobaqalarining o'rni katta.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2022-yil 2-mart kuni tashkil etilgan “Vatan tayanchi” bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyati mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining mutlaqo yangicha shakli va yo'nalishining yaralishiga asos bo'ldi.

Shijoatli bellashuvlar, murosasiz va qizg'in bahslarga boy bo'lgan ushbu harbiy sport musobaqasida yoshlar

“Mohir mergan”, “Harbiylashtirilgan estafeta”, “Jabrulanuvchiga birinchi yordam ko'rsatish”, “Duatlon”, “Safda qo'shiq aytish” va “Temur tuzuklari” bilimdoni” kabi shartlar bo'yicha o'zaro kuch sinashdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, faxrli 1-o'rinni Denov tumanining “Janub qalqonlari” jamoasi, 2-o'rinni Termiz shahrining “Vatanparvarlar” jamoasi va 3-o'rinni Sho'rchi tumanining “Temurbeklar” jamoasi qo'lga kiritdi. Shuningdek, Jarqo'rg'on tumani jamoasi vakili Sherxon Turonov “Eng yaxshi mergan”, Sariosiyo tumani vakili Azizbek Jo'raqulov “Eng kuchli sportchi” va Qumqo'rg'on tumani vakili Javohir Abdullayev “Temur tuzuklari” bilimdoni” hamda Angor tumani vakili Durdona Abdullayeva “Eng yaxshi ijrochi” nominatsiyasi bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi.

“Vatanparvarlar” harbiy sport musobaqasining tantanali taqdirlash marosimida polkovnik Po'lat Sativaldiyev, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Surxondaryo viloyati kengashi raisi Jamoliddin Sherdonaqulov, Faxriylar va Jamoatchilik kengashi a'zolari ishtirok etdi.

G'olib va sovrindorlarga diplom, medal va qimmatbaho sovg'alar berildi. Musobaqa yakunida rahbar va yoshlar “Yashil makon” – bu kelajak avlod oldidagi



bizning majburiyatimiz” shiori ostida harbiy qism hududiga mevali va manzarali ko'chatlar ekdi.

III darajali serjant
Akbar AHMEDOV
Termiz garnizoni

Fikr

Bugungi kunda o'quvchilarga vatanparvarlik ruhini singdirishning ahamiyati har qachongidanda ortgan. Globallashib borayotgan dunyoda turli yot g'oyalar hamda salbiy illatlar urchib bormoqda. Afsuski, ayrim yoshlarimiz eng aziz davrini qo'ldan boy berib qo'yayotgani ham bor gap...

Xo'sh, nega yoshlarda vatanparvarlik hissini oshirish muhim? Avvalo, bu o'quvchilarga yurtini, uning tarixi, madaniyati hamda milliy qadriyatlarini sevis va hurmat qilishni o'rgatadi. Bu ruh esa mustaqil fikrga ega, dunyoqarashi keng shaxsni shakllantiradi. Vatanparvarlik ruhi – insonning jamiyatda o'z o'mini topishi, milliy tarixdan milliy o'zlikni yaratishining muhim qismidir.

Qolaversa, vatanparvarlik ruhi davlatning mustaqilligi va himoyasi

O'quvchilarda vatanparvarlik ruhi qanday shakllantiriladi?

uchun zarurdir. O'quvchilar vatanparvarlik ruhini o'rgangan holda, yurtimizni himoya qilishga va uning rivojlanishiga hissa qo'shishga intilishadi.

Shunday ekan, o'zimning bir necha yillik pedagogik faoliyatim davomida o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishda foydali bo'lgan usullar haqida to'xtalib o'tmoqchiman. Ta'lim va tarbiya bir-birisiz tugal bo'lmaganidek, mana shu jarayonda Vatanga bo'lgan sof muhabbatni uyg'unlashtirish lozim. Jarayonda, avvalo, o'quvchilarga Vatan tarixi va madaniyatini chuqur o'rgatish ham yaxshi samara beradi. Dars mashg'ulotlarida milliy tarix, adabiyot, san'at va madaniyat mavzulariga oid foydali ma'lumotlarni qaysi fan bo'lishidan qat'i nazar bog'lash zarur. Bu o'quvchilarga mamlakat rivojlanishi va tarixiy ahamiyatini tushunishiga yordam beradi.

O'quvchilarning milliy bayramlarda, vatanparvarlik haftaliklarida faol ishtirok etishlari, o'zlari ham turli chiqishlar tashkillashtirishni rejalashtirish foydali

bo'ladi. Shu orqali ularning qiziqishlari ortadi hamda atrofda tilarning ijobiy munosabatlardan ruhlanadi.

Maktab kutubxonalarida vatanparvarlik mavzusidagi asarlar taqdimoti, viktorinalar, kitobxonlik klublari va ijodkorlar bilan uchrashuvlar tashkil etish orqali jonli muloqot maydoni yaratish ham ayni muddaodir. Qolaversa, tarixiy kitoblari, xalq ertaklari va milliy shoir-yozuvchilarning asarlarini o'qish orqali vatanparvarlik ruhini kuchaytirishlari mumkin.

Bu yo'lda o'quvchilarni ijodiy ishlar va loyihalar ustida ishlashga undash ham samarali sanaladi. Buning uchun ularning bayram dasturlari, ochiq darslar, sahna asarlari sahnalashtirish, munozara klublari o'tkazish kabi vazifalarni mustaqil tayyorlashiga imkoniyat yaratish lozim. O'quvchilar uchun qiyinchilik



tug'dirmaydigan darajadagi tadqiqotlar o'tkazishga yo'naltirish ham ijobiy natija ko'rsatadi.

Vatanparvarlik aslida o'z Vatani haqida ko'proq bilish, his etishdan boshlanadi. Biz yoshlarga mana shunday bilim bera olsak, ular o'z-o'zidan kelajak bunyodkorlariga aylanadi.

Guli JO'RAYEVA,
o'qituvchi
(Navoiy shahri)

MILLIY SPORTIMIZ

XALQARO RIVOJI DAVOM ETMOQDA



Jahon sportining barcha jabhalarini birlashtiruvchi hamda sportning xalqaro mavqeyini namoyon qilib kelayotgan "Sport Accord – 2024" ko'rgazmasidan milliy sportimiz kurash ham joy oldi. Eronning Esferayen shahrida esa kurash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun Pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlangan xalqaro turnir o'tkazildi. Unda qatnashgan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakili Muxsin Xisomiddinov bosh sovrinni qo'lga kiritdi.

Kurash O'zbekistonda paydo bo'lgan qadimiy xalq o'yin turi bo'lib, o'zbek tilida "maqsadga halol erishish" degan ma'noni anglatadi. Milliy qadriyatlarimizning nodir durdonasi hisoblangan ushbu sport turini dunyo miqyosida ommaviylashtirish, xalqaro sport turi darajasiga ko'tarish va Olimpiya o'yinlari dasturiga ham kiritish maqsadida bundan 26 yil muqaddam mamlakatimiz poytaxti Toshkentda 28 ta davlat vakillari ishtirokida tashkil etilgan Xalqaro kurash assotsiatsiyasi (IKA) endilikda samarali faoliyat yuritmoqda. Buni bugungi kunda IKA tizimida sayyoramizning beshta qit'asidagi 130 dan ortiq davlatda kurash federatsiyalari ish olib borayotganligidan ham bilish mumkin. Bu borada o'tgan hafta yana bir voqealik yuz berdi. Buyuk Britaniyaning Birmingem shahrida Xalqaro yozgi olimpiya sport turlari federatsiyalari assotsiatsiyasi (ASOIF)ning 48-Bosh Assambleyasi doirasida "Sport Accord – 2024" ko'rgazmasiga bag'ishlangan global sport tadbirlari o'tkazildi. Mazkur tadbirlardan milliy sportimiz kurash taqdimoti ham o'rin oldi. Dunyo sportining barcha tizim va jabhalarini birlashtiruvchi hamda sportning xalqaro mavqeyini namoyon qilib kelayotgan "Sport Accord – 2024" ko'rgazmasidan milliy qadriyatlarimizning muhim bo'g'ini bo'lgan kurash sporti ham joy olgani xalqimiz uchun, mustaqil O'zbekiston uchun tarixiy voqea bo'ldi!

ASOIFning qo'mitalar yig'ilishida Xalqaro kurash assotsiatsiyasi hamda O'zbekiston kurash federatsiyasi delegatsiyasi vakillari ishtirok etib, kurashning dunyodagi rivoji, uni Xalqaro yozgi olimpiya sport turlari federatsiyalari assotsiatsiyasi a'zolariga qabul qilish

masalasida ASOIF ijroiya qo'mitasi, Xalqaro olimpiya qo'mitasi mutaxassislari bilan muzokaralar o'tkazdi. Muloqotlar davomida bir qator kelishuvlarga erishildi. "Sport Accord – 2024" ko'rgazmasida milliy sportimiz uchun ajratilgan alohida pavilyonga jahon sport tashkilotlarining yetakchi mulozimlari, Xalqaro olimpiya



qo'mitasi a'zolari tashrif buyurib, kurashning qadimiylikdan zamonaviylik darajasiga ko'tarilish jihatlari, texnik-taktik tamoyillari, dunyoning turli davlatlarida tashkil etilayotgan kurash musobaqalari geografiyasi, O'zbekiston bayrog'idan jilo olgan kurash yaktaklarining yaratilish tarixi bilan yaqindan tanishishdi.

Ushbu voqelikdan so'ng Xalqaro kurash assotsiatsiyasi (IKA) ham BAAning Dubay shahrida ijroiya qo'mitasi a'zolari, qit'aviy kurash konfederatsiyasi rahbarlari, O'zbekiston kurash federatsiyasi vakillari va IKAning turli qo'mitalari mutasaddilari ishtirokida yig'ilish o'tkazdi. Unda kurashning xalqaro maydondagi rivoji, joriy yil mobaynida o'tkazilishi belgilangan musobaqalar va boshqa shu kabi 20 dan ziyod masala muhokama qilindi. Xalqaro kurash assotsiatsiyasi matbuot xizmati xabariga ko'ra, muhokamalar davomida Buyuk Britaniyaning Birmengem shahrida o'tkazilgan "Sport Accord – 2024"ga bag'ishlangan global sport tadbirlarida kurash taqdimoti o'ziga xos voqea bo'lgani ta'kidlandi. Xalqaro olimpiya qo'mitasi a'zolari, bir qator yozgi olimpiya sport turlari federatsiyalari mutasaddilari va dunyoning yetakchi sport mutaxassislari bilan muzokaralar olib borilgani, kelishuvlarga erishilgani aytib o'tildi.

E'tirof etish joiz, milliy sportimizning dunyo miqyosida tobora ommaviylashayotganida, xalqaro maydondagi rivojlanish tizimida yangi davr boshlanayotganida Davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning

xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning ijobiy samarasiga biz milliy sportimizni xorijiy davlatlarda yanada ommalashtirish, uni jahon xalqlarining eng ommabop sport turlaridan biriga aylantirish yo'lida "Sport Accord – 2024"da tashlangan muhim qadamda ham voqif bo'lib turibmiz.

Yana shuni ta'kidlash joiz, "o'zbek sporti" nomi bilan jahon arenasida tobora tanilib, ommaviylashib kelayotgan kurash mamlakatimiz sportining yangi imkoniyatlarini xalqaro maydonda namoyish etishda, o'z navbatida, yurtimiz yoshlari qalbida vatanparvarlik, mardlik, oliyjanoblik va faxr-iftixor to'yig'ularini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro maydonda ushbu sport turiga nisbatan e'tibor esa yil sayin kuchayib, turnirlar ko'paymoqda, an'anaviylari yanada qiziqarli tus olmoqda. Bundan o'tgan hafta oxirida Eronning Esferayen shahrida o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun Pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlangan mukofot jamg'armasi 10 ming AQSh dollaridan iborat xalqaro turnir ham xoli bo'lmadi.

Esferayen shahridagi "Zeinal-Khan Traditional Wrestling Arena" sport majmuasi faqat og'ir vazn toifalaridagi dunyoning eng kuchli polvonlarini o'zida jamladi. Boshqacha izohlaganda, polvonlar xalqaro turnir nizomiga muvofiq -90 va +90 kg vazn toifalarida o'zaro bellashishdi va ishtirokchi har bir davlatdan bitta vaznda 2 nafardan sportchi gilamga chiqdi.

Mazkur nufuzli xalqaro turnirda yurtimiz sport sharafiga Rizamat Soliyev bosh murabbiyligidagi polvonlarimiz – Alixon Nodirov, Umar Bozorov, Muxsin Xisomiddinov va Asror Hamidov himoya qildi. 50 ming tomoshabinga mo'ljallangan sport majmuasidagi bellashuvlar qiziqarli va ularning aksariyati yurtimiz polvonlari ustunligi ostida kechdi. Xususan, -90 kg.da gilamga chiqqan terma jamoamiz a'zosi Alixon Nodirov barcha raqiblarini mag'lub etib, yakunda shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi.

Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili Muxsin Xisomiddinov ham murabbiylar ishonchini oqladi. O'tgan yili Turkmanistonda o'tkazilgan kurash bo'yicha XIV jahon chempionati hamda Xitoyda bo'lib o'tgan XIX yozgi Osiyo o'yinlarida mutlaq (+90 kg) vazn toifasida g'oliblikka erishgan polvonimizga bu safar finalda boshqa bir hamyurtimiz Asror Hamidov raqiblik qildi. Mazkur bellashuvda boy tajriba, baribir, o'z so'zini aytdi – Xisomiddinov g'alaba qozondi, Hamidov esa kumush medal bilan kifoyalanishga majbur bo'ldi.

Musobaqada g'oliblik shohsupasiga ko'tarilgan polvonlar 3 000 ming, kumush medal sohiblari 1 000 va bronza medalni qo'lga kiritganlar 500 AQSh dollariga sazovor bo'lishdi.

Milliy sportimiz – kurashning xalqaro miqyosda tobora ommaviylashayotganligi bu biz uchun, albatta faxr va iftixor! Shunday ekan, sport muxlislariga jo'r bo'lgan holda: "Olg'a! Kurash! Olg'a, O'zbekiston!" deb qolamiz.

Og'ir atletika

Tarkibidan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakillari ham o'rin olgan og'ir atletika bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolari Tailandda o'tkazilgan "Parij-2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga reyting ochkolari ham taqdim etgan jahon kubogi bahslarida qatnashdi. Musobaqada 3 ta oltin va bitta bronza medalni qo'lga kiritgan O'zbekiston erkaklar terma jamoasi umumjamoa hisobida 4-pog'onadan joy oldi.

JO'RAYEV — MUTLAQ CHEMPION!

Xalqaro olimpiya qo'mitasining tegishli qarori bilan "London-2012" va "Rio-2016" yozgi Olimpiya o'yinlariga og'ir atletika uchun 260 ta, "Tokio-2020" yozgi Olimpiya o'yinlariga 196 ta o'rin ajratilgandi. "Parij-2024"ga kelib bu son yanada qisqardi, ya'ni 140 taga tushirildi. Bu og'ir atletikachilarning Olimpiya o'yinlari medallari uchun kurashishidan avval uning ishtirokchisi bo'lish yo'lidagi "jang"larini g'oyatda keskinlashtirdi. Bundan Tailandning Pxuket shahrida bo'lib o'tgan og'ir atletika bo'yicha jahon kubogi bahslari ham xoli bo'lmadi. G'oliblik va "Parij-2024" yozgi Olimpiya o'yinlari yo'lida kechgan murosasiz bellashuvlarda 110 ta davlatning 500 nafarga yaqin mahoratli atleti qatnashdi. Jahon kubogining 12 kunlik murosasiz bahslari natijasida erkaklar o'rtasida 12 ta, ayollar o'rtasida 9 ta jahon rekordi yangilandi.

Mazkur jahon kubogi bahslarida yurtimiz terma jamoasi a'zolaridan -109 kg vazn toifasidagi atletimiz Akbar Jo'rayev yuqori mahorat namoyish etdi. "Tokio-2020" yozgi Olimpiya o'yinlari g'olibi va jahon chempioni sanalgan hamyurtimiz dast ko'tarishda 189 kg, siltab ko'tarishda 227 kg va ikkikurash bo'yicha 416 kg natija ko'rsatib, 3 ta oltin medalni qo'lga kiritgan holda mutlaq chempion bo'ldi. Taqdirlash marosimida Akbar Jo'rayevning g'alabasi sharafiga O'zbekiston madhiyasi yangrab, bayrog'imiz baland ko'tarildi.

Ta'kidlash joiz, ushbu yo'nalishdagi bahslarda qatnashgan yosh sportchimiz Sharofiddin Amriddinov ham o'z mahoratini namoyish etdi. U dast ko'tarishda 170 kg toshni o'ziga bo'ysundirib, bronza medal sohibiga aylandi. Sharofiddinning siltab ko'tarish (208 kg) va ikki kurashdagi (378 kg) ko'rsatkichlari esa medallar uchun kamlik qildi, faxrli 4- va 5-o'rinlardan joy oldi.

Jahon kubogi bahslarida qatnashgan qolgan vakillarimizning biroz omadi chopmadi. Xususan, O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Nigora Abdullayeva -55 kg vaznda supaga chiqdi. Shiddatli va o'ziga xos kurashlar ostida o'tgan bellashuvlar sarhisobiga ko'ra, Abdullayeva dast ko'tarishda 83 kg, siltab ko'tarishda 105 kg, ikkikurashda 188 kg natija qayd etib, jahon kubogini 5-o'rinda yakunladi. -87 kg vazn toifasida medallar uchun kurash olib borgan Nigora Suvonova esa dast ko'tarishda 95 kg natija bilan oltinchi, siltab ko'tarishda 125 kg natija bilan to'rtinchi, ikkikurashda 220 kg natija bilan 6-o'rinni egalladi.

Shu tariqa nufuzli musobaqada 3 ta oltin va bitta bronza medalni qo'lga kiritgan O'zbekiston erkaklar terma jamoasi umumjamoa hisobida KXDR, Xitoy va Armanistondan keyingi 4-pog'onadan joy olish bilan birga "Parij-2024" Olimpiadasining muhim reyting ochkolariga ham ega chiqdi.

Professional boks

QATNASHCHI BARCHA BOKSCHIMIZ G'OLIB

Poytaxtimizdagi "Humo Arena" sport majmuasida professional boks bo'yicha "IBA Chempionlar oqshomi" o'tkazildi. Unda ringga ko'tarilgan barcha bokschimiz g'alaba qozondi. Hasanboy Do'smatov esa IBA chempionlik kamarini qo'lga kiritdi.

Xalqaro boks assotsiatsiyasi, O'zbekiston Sport vazirligi, Milliy olimpiya qo'mitasi, mamlakatimiz Boks federatsiyasi va bir qator tashkilotchilar tomonidan poytaxtimizda tashkil etilgan professional boks bo'yicha "IBA Chempionlar oqshomi"da 8 ta jang o'tkazildi. IBA kamari uchun markaziy jang -51 kg vazn toifasidagi bokschimiz Hasanboy Do'smatov va ispaniyalik Samuel Karmona o'rtasida bo'lib o'tdi. 10 raund davom etgan jangda Hasanboy yuqori texnikasini namoyish etdi. Uning tezkor hamda aniq zarbalari raqibini ochkolar hisobida mag'lub

etishiga olib keldi. Eng muhimi, Do'smatovning professional boksdagi ushbu 7-g'alabasi unga IBA chempionlik kamarini taqdim etdi. O'z navbatida, Hasanboy Do'smatov tashkilotchilar tomonidan kafolatlangan 350 ming AQSh dollari miqdoridagi mukofot puliga ham ega chiqdi.

"IBA Chempionlar oqshomi"ning ushbu markaziy jangiga qadar 6 raundlik bahslar ham o'tkazildi. E'tiborlisi, ringga ko'tarilgan bokschilarimizning barchasi g'alaba qozondi. Xususan, vazni -60 kg bo'lgan charm qo'lqop ustalari bahsida Elnur Abduraimov meksikalik

Karlos Omelasni, -63.5 kg vazn toifasida Mujibillo Tursunov tanzaniyalik Juma Chokini, super yarim o'rta (-71 kg) vazn toifasida Iqboljon Xoldorov qozog'istonlik Raxmanqo'l Sagadatni, og'ir (+92 kg) vazn toifasida Jahongir Zokirov xorvatiyalik Smakiki Agronni yengdi. -75 kg vazn toifasidagi bokschimiz A'loxon Abdullayev esa mo'g'ulistonlik Jargal Otgonjargalni 5-raunddayoq nokautga uchratdi. Shuningdek, 8 raund etib belgilangan jangda hamyurtimiz Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev turkiyalik Fatix Keles ustidan zafar quchdi.

SHOHSUPA

(xabarlar)



DZYUDO



Poytaxtimizdagi "Universal" sport saroyida dzyudo bo'yicha o'smirlar va yoshlar o'rtasida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston vakillari ishtirokida Uchqun Murodov xotirasiga bag'ishlab Osiyo ochiq kubogi bahslari o'tkazildi. Musobaqaning o'smirlar o'rtasidagi bellashuvlarida terma jamoamiz a'zolari 16 ta oltin, 10 ta kumush va 24 ta bronza, jami 50 ta medal jamg'ardi. 13 ta oltin, 8 ta kumush, 26 ta bronza, jami 47 ta medalni qo'lga kiritgan yoshlar terma jamoamiz ham umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi.

TENNIS



Xalqaro tennis federatsiyasi tomonidan Tunisning Monastir shahrida o'tkazilgan musobaqada hamyurtimiz Denis Istomin bosh sovrin sohibiga aylandi. Tajribali tennischimiz musobaqaning juftlik bahslarida rossiyalik Yevgeniy Karlovskiy bilan finalga qadar yetib bordi. Ular finalda Buyuk Britaniya vakillari Jeyms Devis hamda Xussey Jayls tandemi bilan jang qilishi kerak edi. Ammo Jeyms va Xussey mazkur bahsni o'tkazishdan bosh tortdi va mag'lubiyatini tan oldi. Shu tariqa Istomin va Karlovskiy bosh sovringa egalik qildi.

BADIY GIMNASTIKA



Bolgariyaning Sofiya shahrida badiiy gimnastika bo'yicha jahon kubogining navbatdagi bosqich bahslari bo'lib o'tdi. Unda qatnashgan O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Taxmina Ikromova kumush medalga sazovor bo'ldi. Taxmina musobaqaning to'p bilan mashq bajarish dasturida 34.050 ball bilan ikkinchi o'rinni egalladi. Shuningdek, u bulavadagi mashqda 30.750 ball bilan beshinchi, halqadagi dasturda esa 33.300 ball bilan oltinchi natijani qayd etdi.

KAMONDAN OTISH



Turkiyaning Antaliya shahrida kamondan otish bo'yicha "Kahraman bagatir spring arrows tournament-2024" musobaqasi o'tkazildi. Merganimiz Amirxon Sodikov Ukraina, Italiya, Niderlandiya va Misr vakillarini mag'lubiyatga uchratib, yarim finalda italiyalik Federiko Musolesiga imkoniyatni boy berdi. 3-o'rin uchun kechgan merganlik mashqlarida esa fransiyalik Jan-Sharl Valladontidan ustun keldi va bronza medal sohibiga aylandi.

BESHKURASH



Janubiy Koreyaning Xvason shahrida zamonaviy beshkurash bo'yicha o'smirlar va yoshlar o'rtasida Osiyo chempionati o'tkazildi. O'zbekiston terma jamoasi a'zolari musobaqaning yoshlar dasturida 2 ta bronza medalga ega chiqdi. Uning biriga Samira Abzalova yakka bahslarida erishgan bo'lsa, Mehriniso Qahramonova, Mubina Qodirjonova va Samira Abzalovadan iborat terma jamoamiz ham qit'a chempionatining jamoaviy dasturi bo'yicha bahslarida 3-o'rinni egalladi.

BOKS



O'zbekiston milliy terma jamoasida murabbiy bo'lib ishlab kelayotgan kubalik Xulio Li Echavarria mamlakat o'smirlar terma jamoasi bosh murabbiyi etib tayinlandi. Toshkent viloyatidagi "Yangiobod" o'quv-mashg'ulot sport bazasida O'zbekiston boks federatsiyasi rasmiylari, barcha yosh toifasidagi murabbiylar shtabi vakillari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda shunday qarorga kelindi. Bosh maqsad ishlab chiqilgan "Yosh bokschilarni tayyorlash milliy standarti" loyihasi bo'yicha barcha yosh toifasidagi terma jamoalar tarkibiga iqtidorli bokschilarni yetkazib berish, jamoalar o'rtasida uzviy bog'liqlikni kuchaytirish.

AGITATOR JANGCHI

Urush... janggoh... Bu – navqiron umrlar, yosh-u qarini birdek domiga tortadigan ajal qatloni. Bu – majruh vujudlar, majruh yuraklar, ayriqliqlar azobi... Urush ko'rgan avlod borki, yuragida dog' bor. Ammo inson uchun Vatan, hurlik yanglig' tengsiz ne'matlar borki, odamzod uni asrash uchun jonini tikishga shay turadi. Bosqinchilik, istibdod, zulm paykonini parchalash uchun ko'kragini qalqon qiladi.

Toshkent politexnika institutining Konchilik fakulteti dekani bo'lib ishlayotgan yosh olim G'ani Mavlonov ham gitlerchilar Ikkinchi jahon urushini boshlaganida frontga jo'natishlarini so'rab harbiy komissarlikka ariza yozdi. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi Usmon Yusupov yuzdan ziyod ko'ngilli huzurida nutq so'zlab, ularga oq yo'l tiladi. Shunday qilib, 1941-yilning dekabrda frontga otlangan Mavlonov harbiy bilim yurtida tahsil olgach, kichik leytenant harbiy unvoni bilan 21-o'qchi brigadaning

minomyot rotasi komandirining o'rinbosari etib tayinlandi.

Urushning qonli janggohlari har qanday insonga ruhiy ta'sir qilishi tabiiy hol. Shu sabab dushmani yengish, g'alabani ta'minlash uchun targ'ibot-tashviqot ishlari muhim ahamiyatga ega. G'ani Mavlonovdagi bu qobiliyatni inobatga olgan qo'mondonlik uni Oliy harbiy pedagogika institutiga o'qishga yuboradi. Agitator jangchi 1943-yilning oktabrida oliygohni tugatgach, Ukraina frontida jangovar faoliyatini boshladi. "Qizil bayroq" ordenli 91-Melitopol diviziyasining 13-polkida agitator sifatida jang qildi. U nafaqat jangchilarni ruhlantirar, balki janglarda ularga o'rnatilgan majburiyat muassasasini: g'alabani ta'minlashda jangchilarga ruhan madad bo'lish va oldingi safda jang qilish. Mavlonov Ukraina, Belarus, Latviya, Estoniya, Sharqiy Prussiyani ozod qilishda mardonavor ishtirok etdi. Gitlerchilarning Kurlandiya guruhini tor-mor etishda mardlik namunalari ko'rsatdi.

1944-yil, yanvar oyining o'rtalari. Mavlonov xizmat qilayotgan diviziyaga tungi soat to'rtlarda Sivash ko'lidan kechib o'tib, dushman ortidagi platsdarmni egallash haqida buyruq berildi. U har doimgidek muhim topshiriq oldidan agitatorlik vazifasini bajarishga kirishdi:

– Yigitlar, qahraton qishda belimizgacha suvga botib ko'lni kechib o'tishimiz oson emas. Ayniqsa, tunda sovuq yanada kuchayadi. Bunday mashaqqatli vazifani uddalash ham bir jasorat.

Biroq fashistlarning qonli zulmi oldida bu hech gap emas.

Hozir irodamizni qo'lga olib, muhim topshiriqni uddalasak, g'alaba bizniki. Unutmang, jasorat bizga harorat beradi, vazifani so'zsiz uddalaymiz. Agar

ortga chekinsak, bu imkoniyat fashistlar qo'lga o'tadi, ko'ldan o'tib bizni yakson qilishi aniq. Shunday ekan, biz qashqirlardan avval harakat qilishimiz kerak, topshiriqqa hamma shaymi?

– Tayyormiz!

– Albatta, uddalaymiz!

– Fashistlarga o'lim! Ko'ldan o'tib, ularni yakson qilamiz!

– Xuddi shunday, yigitlar, biz albatta buni uddalaymiz!

Tayyorgarlikni boshlang!

Agitator – yo'lbo'shchi degani.

Aytgan so'zing uddasidan avvalo o'zing chiqishing shart. Shunday ekan, agitator birinchilardan bo'lib topshiriqni bajarishga kirishishi lozim. Jangchilar ko'ldan o'tishga shaylandi, ichki kiyimlarini boshlariga o'rab, qurollarini avaylab suvga tusha boshladi. Oldingi safda G'ani Mavlonov.

Jangchilar ovoz chiqarmay 1 500 metrlik masofani bellariga qadar suv kechib bosib o'tdi. Sohilga chiqishlariga chamasini 300 metrlik qolganida fashistlar sezib qoldi, ularga qarata o't ochishga tushdi. Yigitlar harakatlarini tezlatib, oldinga intilish barobarida qurollaridan o't ochib jangga kirishdi. Qirg'oqqa yetib borgach, "Ura!" sadolari ostida hujumga o'tdilar. Dushmanga nisbatan nafrat, g'alabaga bo'lgan ishonch jangchilardagi sovuq zaxmini yenggandi. Ular oyoqyalang to'rt-besh kilometrlik yo'lni jang bilan bosib o'tib, istehkomni egalladi.

Jangchilarning shinellari muzlab qotib qolgan, biydek kenglikda na kiyimlarni quritadigan, na isinib oladigan joy ko'zga tashlanmasdi. Atrofda biror tup daraxt-u turarjoy ko'rinmasdi. Axir bu yer Qrim dashti edi-da. Ha, g'alaba mislsiz og'ir sinovlar evaziga qo'lga kiritilgandi. Shubhasizki, bu muzaffarlikda G'ani Mavlonovning hissi katta edi.

Diviziya jangchilari yanvardan aprelga qadar shu yerda mudofaada bo'ldi. Aprel o'rtalarida hujumga o'tib, Qrim yarim orolining shimoliy qismini ozod qildi.

Gitlerchilarning Sapun-Goradagi nihoyatda mustahkam pozitsiyasi tor-mor etildi hamda Sevastopol shahri qaqshatqich hujumlar evaziga dushmandan qaytarib olindi.

Jang davom etardi. Dushman sari yurish oldidan Mavlonov targ'ibot-tashviqot ishlari a'lo darajada uddalar, ruhi ko'tarilgan safdoshlari bilan yelkama-yelka jangga kirardi. Sevastopol ozod etilgach, jangchilar

fashistlarni Xersones buruni tomon siqib bordi. Mag'lubiyatni tan olgan gitlerchilarning 45 ming askar va ofitseri asir olindi. Qrimni ozod etishdagi

jonbozligi, jasorati uchun kichik leytenant G'ani Mavlonov "Qizil Yulduz" ordeni bilan taqdirlandi.

1945-yilning yanvar oyi. Soat tungi o'n ikkilarda Mavlonovni diviziya shtabiga chaqirishdi.

– Mavlonov, seni butun diviziya jangchilari yaxshi taniydi, – so'zni uzoqdan boshladi diviziya komandiri. – Agitator jangchi sifatida bilimdon va suxandonliging, mard jangchi ekaning bilan barchaning e'tiborini qozongansan. Bir so'z bilan aytganda, ishonchga loyiqsan. Shuning uchun yuqori qo'mondonlikdan kelgan muhim vazifani senga topshirishga qaror qildik.

– Ishonchingizni oqlayman, o'rtoq polkovnik!

– Bizga kelgan ma'lumotga ko'ra, 603-o'qchi polkning birinchi batalyoni tong sahar 30 ta tank bilan hujumga o'tadi. Ularga qo'yilgan vazifa – gitlerchilar mudofaasining uchta liniyasini yorib o'tib, Leylupa daryosidagi ko'prikn egallash va asosiy hujumchi qismlar kelgunicha uni saqlab turish. Ushbu muhim operatsiyada polkimizdan tajribali ofitser qatnashishi lozim. Biz sening nomzodingga to'xtalidik. Buni uddalashga shubham yo'q. Tayyormisan, Mavlonov?

– Tayyorman, topshiriqni albatta uddalayman!

Muhammud vazifaga chog'langan birinchi batalyon jangchilari tong sahariga qadar tayyorgarlik ko'rdi. Sapyorlar tanklar o'tishi uchun mudofaaning oldingi qismini minalardan tozaladi. Shundan so'ng jangchilar tanklarga o'tirib, gitlerchilar mudofaasi tomon harakat boshladi. Dastlabki mudofaa liniyasi tor-mor etildi. Lekin ikkinchi liniya dushmanni qattiq zarbasiga uchradi. Tanklarning asosiy qismi ishdan chiqdi. Kapitan Gusev komandirlik qilayotgan batalyon qattiq jang bilan ko'prikn ishg'ol etdi va tanklardan butunlay ajralib qoldi. Fashistlarning mingdan ziyod askari ular ustiga yopirilib kelar, artilleriya va minomyotdan o'q yog'dirardi. Bu tengsiz olishuvda Gusev halok bo'ldi. Vaziyat og'ir, jangchilarga boshchi kerak. Mavlonov komandirlikni o'z zimmasiga oldi. Dushman katta kuch bilan yaqinlashib qolgandi. Ko'prikn muhofaza qilayotgan jangchilar soni o'n nafardan oshmasdi. Ular mardona turib jang qilardi.


Mavlonov yigitlarga madad bo'luvchi so'zlar aytish barobarida reja tuzardi. "Dushman qo'lga asir tushgandan ko'ra jangda halok bo'lgan ma'qul. Ammo shunday o'ladigan ahmoq yo'q. Granata bilan o'zimga qo'shib bir necha fritsni u dunyoga olib ketaman". Shu payt dushman minomyoti otgan snaryad portlab, G'ani Mavlonovni yarador qildi. Sanoqli qolgan askarlar baxtiga qo'shimcha kuch yetib keldi. Ushbu jangda operatsiyada qatnashgan 500 jangchidan 30 nafari omon qolgandi.

Taniqli agitator gospitalda ko'zini ochdi. Uni oyoqqa turg'azish uchun shifokorlar bor imkoniyatni ishga soldi, uzoq davoladi. Irodali agitator jangchi salomatligi tiklangan zahoti yana safga qaytdi. O'z qismida jangovar xizmatini shijoat ila davom ettirdi. U targ'ibotchiligi, janglarda ortga chekinmasligi, mardligi bilan ajralib turardi.



G'ani Mavlonov Leylupa daryosi yoqasi va Kurlandiya janglari ko'rsatgan jasorati uchun II darajali "Vatan urushi" ordeni bilan mukofotlandi. Urushning so'ngiga qadar jangovar safda bo'lib, fashistlar ustidan qozonilgan g'alabaga munosib ulush qo'shdi.

G'alaba bilan ona yurtga qaytgan yosh olimni oldinda yangi ilmiy ishlar kutardi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, geologiya-minerologiya fanlari doktori, professor G'ani Orifjonovich Mavlonov umrini ilmfanga, Vatan ravnaqiga baxshida etdi. Agitator jangchi va ulug' olim sifatida tarixdan munosib joy oldi.



Zulfiya YUNUSOVA
Xotira kitobi asosida
tayyorladi.

QO'ZIQQORINDAN zaharlanishdan ehtiyot bo'ling!



Bahor faslida yomg'irli kunlardan so'ng yurtimizning qir-adirlari, maysazorlari va ariq bo'ylarida qo'ziqorinlar chiqib boshlaydi. Bu esa qo'ziqorin iste'mol qilishni yoqtiradigan kishilar uchun ayni muddaodir. Bundan tashqari, ayrim kishilar tomonidan qo'ziqorinlarni terib, katta avtomagistral yo'llar yoqalarida hamda bozorlarda sotish hollari ham ko'payadi. Lekin ana shu qo'ziqorinlarni terib yoki sotib olib, iste'mol qilishdan avval ularning yaroqli ekaniga ishonch hosil qilish zarur bo'ladi.

Yer yuzida qo'ziqorinlarning 100 000 dan, respublikamiz hududida 170 dan ortiq turi ma'lum bo'lib, bor-yo'g'i 16 turi iste'mol uchun yaroqli, qolganlari zaharli va iste'mol uchun yaroqsizdir. Qo'ziqorinlarning tarkibida turli zaharli moddalar mavjud bo'lib, qo'ziqorin qanchalik ishlov berilmasin, tarkibidagi zaharli moddalar yo'qolib ketmasligi, oshqozon-ichak fermentlari ta'sirida parchalanmasligi sabab iste'mol qilgan insonlarni zaharlanishga og'ir hollarda esa o'limga olib keladi.

Mamlakatimizda "shampinyon" va "veshenka" turlari issiqxonalarda yil davomida yetishtiriladi. Ulardan tayyorlangan konserva mahsulotlari maxsus laboratoriyalarda tekshirilib, inson sog'lig'i uchun zararsiz deb topilgan taqdirda sotuvga chiqariladi. Ta'kidlash joizki, qo'ziqorinlarning havodagi moddalarni so'rib olish va o'zida saqlash xususiyati tufayli ekologik toza bo'lmagan joylarda o'sgan, iste'molga yaroqli hisoblangan qo'ziqorinlarni ham yeyish tavsiya etilmaydi.

Zaharlanishlarning qariyb 4 foizi zaharli qo'ziqorinlarni iste'mol qilish bilan bog'liq. Ushbu zaharlanishning sabablari bu qo'ziqorinlarni yaxshi bilmaslik va ularni noto'g'ri tayyorlashdir.

Qo'ziqorinlarni bolalar, homilador va emizikli ayollar, ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari bo'lgan odamlar iste'mol qilishi tavsiya etilmaydi. Bolalar tanasida ularni hazm qilish uchun zarur bo'lgan fermentlar mavjud emasligi sababli 14 yoshgacha bo'lgan bolalarga qo'ziqorin yoki qo'ziqorinli mahsulotlar berish mumkin emas.

Qo'ziqorindan zaharlangan hollarda kasallik belgilari iste'mol qilingan qo'ziqorinning turiga qarab turlicha bo'ladi. Lekin ko'p hollarda qo'ziqorin iste'mol qilingandan so'ng 1-2 soat o'tgach, zaharlanish holsizlik, ko'ngil aynishi, qayt qilish, qorinda og'riq paydo bo'lishi bilan namoyon bo'ladi. Shuningdek, ko'p so'lak oqishi, ko'p terlash, ko'zdan yosh oqishi, pulsning sekinlashishi, alahsirash, titrash holatlari ham kuzatiladi. Ko'z qorachig'ining kengayishi yoki uning torayishi zaharlanish alomatlaridan biridir.

Qo'ziqorindan zaharlanish alomatlari vujudga kelgan taqdirda bemorga 1-2 litr osh tuzi eritmasi ichirilib, barmoq yordamida tilining ildizi bosilib, sun'iy qayt qildiriladi. Agar oshqozon yuvilib, undagi zaharli moddalar chiqarib yuborilmasa, ular qonga so'riladi va zaharlanish yanada kuchayadi. Spirtli ichimliklarni iste'mol qilish man etiladi, chunki etil spirti qo'ziqorindagi zaharli moddalarning oshqozonga tez so'rilishiga olib keladi.

Qo'ziqorindan zaharlanishning dastlabki belgilari paydo bo'lgandayoq, zudlik bilan shifokorga murojaat qilinib, bemorga malakali tibbiy yordam ko'rsatilsa, 2-3 kunda sog'ayib ketadi. Bemorning shifokorga murojaat qilmasdan, uy sharoitida o'zboshimchalik bilan davolanishi, o'z vaqtida davo choralari ko'rilmassligi natijasida qo'ziqorindagi mavjud bo'lgan zaharli moddalar jigar, buyrak, oshqozon osti bezi va bosh miya faoliyati buzilishiga olib kelib, o'lim holatlari kuzatilishi mumkin.

Respublikamizda qo'ziqorindan zaharlanish holatlari uchrab turadi.

Bundan har bir kishi to'g'ri xulosa chiqarishi lozim. Ehtiyotsizlik, tavsiya va maslahatlarga amal qilmaslik esa og'ir oqibatlariga olib keladi.

Qo'ziqorindan zaharlanishning oldini olish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

laboratoriya tekshiruvlaridan o'tmagan, iste'mol uchun yaroqlilik xulosasi bo'lmagan qo'ziqorin mahsulotlarini xarid qilmaslik;

oilaviy dam olish yoki dala-o'quv mashg'ulotlari vaqtida dalalarda, ekin ekish joylarida, avtomobil magistral yo'l yoqalari va boshqa joylarda o'sgan qo'ziqorinlarni iste'mol qilmaslik;

yosh bolalarning zaharli qo'ziqorinlarni o'ynashiga, qo'llari zaharli modda bilan ifloslanishiga, ko'zlarini ishqalashiga, qo'llarini og'ziga tekkizishiga, ko'p hollarda qo'llarini yuvmasdan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishiga yo'l qo'ymaslik.

Tibbiy xizmat leytenanti

A. TURAQULOV,

Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasi tinglovchisi.

A. SARIMSAKOV,

Mudofaa vazirligi

Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi mutaxassisi

E'zoz

TA'ZIM SIZGA, AZIZ USTOZLAR!

Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutining bir guruh harbiy xizmatchilari Toshkent shahrida umrguzaronlik qilayotgan, muborak 70 yoshni qarshi olgan iste'fodagi podpolkovnik Oleg Vladimirovich Sey xonadoniga tashrif buyurib, ustozning holidan xabar olib, qutlug' tavallud ayyomi bilan tabriklab, o'zlarining eng ezgu va samimiy tilaklarini izhor etdilar.



Iste'fodagi podpolkovnik Oleg Sey 1954-yil 16-aprelda tug'ilgan. 1977-yilda Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurtini tamomlagan, 1977-1999-yillarda Mudofaa vazirligi qo'shinlarida turli lavozimlarda xizmat qilgan, 1999-2005-yillarda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Maxsus fakultetida kafedra boshlig'i, kafedra boshlig'i o'rinbosari va katta o'qituvchi lavozimlarida xizmat qilgan.

Oleg Vladimirovich mamlakatimiz va xalqimizga halol xizmat qilib, bo'lajak ofitserlarga chinakam ustoz, maslahatgo'y bo'lib, butun umrini yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohasiga bag'ishlagan jonkuyar murabbiydir.

Ustoz shu tabarruk yoshida ham zo'r g'ayrat-shijoat va ko'tarinki kayfiyatda mehnat qilib, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ko'pchilikka o'rnak bo'lib kelmoqda. Oleg Vladimirovich

*Ustoz-muallimsiz qolganda zamon,
Nodonlikdan qaro bo'lardi zamon.
Abdurahmon JOMIY*



mehribon ota, g'amxo'r oila boshlig'i, bir-biridan shirin nabiralarining ardoqli va suyuqli bobosi.

Harbiylar ustozga institut rahbariyatining tabriknomasini o'qib eshittirdi va sovg'a-salomlar ulashdi.

Mayor Sherqo'zi XAKIMOV


Mudofaa vazirligi

Axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari va aloqa

harbiy instituti

Vatanga qasamyod – Qurolli Kuchlar safiga kirgan yosh harbiy xizmatchi hayotidagi unutilmas kun. Yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini himoya qilishdek muqaddas burchni ado etishga bel bog'lagan har bir mard o'g'lonning tantanali va'dasi.



SADOQAT TIMSOLI

Ayni kunlarda respublikamiz bo'ylab harbiy qism va muassasalarga yangi chaqirilgan muddatli harbiy xizmatchilarning Vatanga qasamyod qabul qilish marosimlari o'tkazilmoqda.

Xususan, Milliy gvardiya Toshkent shahri bo'yicha boshqarmasida muddatli harbiy xizmatga yangi chaqirilgan askarlarning Vatanga qasamyod qabul qilish tantanali marosimi bo'lib o'tdi. Unda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi a'zolari, Milliy gvardiya qo'mondoni R. Djurayev, Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori

B. Kudratxodjayev, hamkor vazirliklar vakillari, faxriylar va ota-onalar ishtirok etdi.

So'z olganlar Vatan posbonlariga hamisha qasamyodiga sodiq bo'lish kerakligi haqida mulohaza yuritib, ezgu tilaklarini bildirib o'tdi.

Jarayonda askarlar qasamyodda bitilgan muqaddas so'zlarni tilga olib, O'zbekiston xalqiga va Prezidentiga sadoqatli bo'lishga,

Konstitutsiya talablarini so'zsiz va vijdonan bajarishga, xalq va davlat manfaatlarini himoya qilishga tantanali va'da berdi.

Tadbirda har bir muddatli harbiy xizmatchiga Prezident sovg'asi va kitoblar jamlanmasi topshirildi.

Adliya polkovnigi Akbar BOBOYEV,
Toshkent harbiy prokurori

Reklama

“PGS” MCHJ QUYIDAGI USKUNALARNI TAVSIYA ETADI

“PGS” mas'uliyati cheklangan jamiyati quyidagi mahsulotlarni tavsiya etadi: elektro'choq, ekomangal hamda kichik “PGS” novvoyxonalarini tavsiya qiladi. Bu qurilmalar keng turdagi non va non mahsulotlarini (buxanka, bulochka, obinon, baton, somsa, qandolat mahsulotlari va boshqa ko'plab turdagi mahsulotlarni) pishirish uchun mo'ljallangan.

Kichik novvoyxona qurilmasi bir-birining ustiga o'rnatilgan ichki kameralardan iborat korpusga egadir. Har bir kamera mahsulotni pishirish uchun mo'ljallangan.

Qurilma sopoldan yasalgan isitkich qismlar yordamida isiydi. Bu esa mahsulotning sifatli pishirilishini ta'minlaydi. Qurilma oshxona, restoran, sanatoriy va harbiy qismlarda a'lo darajada sinovdan o'tgan. Bahosi kelishilgan narxda.

“PGS” kichik novvoyxonasi, mana, 30 yildirki, O'zbekiston bozorlarida turdosh korxonalar orasida yetakchilik qilmoqda. Bu uskuna sifat va vaqt sinovidan o'tgan.

**KICHIK
NOVVOYXONA**



BEPUL XIZMAT
5
YIL

Sizning “PGS” kichik novvoyxonasidan foydalanishingiz va ishonchingiz 5 yil bepul xizmat bilan kafolatlanadi. Shuningdek, uzoq muddat ishlashi va ishonchliligi bilan sizga manzur bo'lishiga kafolat beramiz.

**ELEKTRO'CHOQ
EKOMANGAL**



Mahsulotlar sertifikatlangan.

Manzil:
Toshkent shahri
Gavhar ko'chasi, 125-uy.

Murojaat uchun telefonlar:

95 169-78-51


95 169-78-52

95 169-78-53



Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun

Voqif SULTONLI



(hikoya)

It bir paytlar o'zi qo'riqlagan hovlining yonida to'xtadi. Umrining eng shirin damlari o'tgan bu makon endi uning uchun dunyodagi eng olis, yetib bo'lmas bir maskanga aylangandi.

Uch kundirki, och edi. Qaysi uyga oyoq bossa, uni quvib chiqarishardi. O'ziga biror boshpana topolmasdi. Ko'chaning oxiridagi sassiq axlatxonani ham tumshug'i bilan titkilab, biror yegulik topolmadi.

Yalqovlanib, ko'chaga ko'z yugurtirdi. Birdan tosh devor tagida tushib yotgan suyakka ko'zi tushdi. Atrofga olazarak ko'z soldi. Qo'rqa-pisa suyakni asta tishlab, yo'l chetidagi eski bostirma tagiga o'tdi. Suyak pichoq bilan chunonam qirtishlangan ediki, bir eti qolmagandi. Chirik tishlari bilan suyakni qancha g'ajimasin, uni sindirolmadi. Suyakni tishlari orasida aylantirarkan, so'lagi oqdi. Keyin suyakni itqitib, tanballarcha ortiga burildi.

Osmon toqida suzayotgan momiq bulutlar qontalash tusga kirgandi. Xuddi bulutdan yomg'ir emas, qon yog'adigandek. Qarshisidagi baland cho'qqilar ham quyoshning so'nayotgan shafaqlari ostida qizarib ko'rinadi. Bu qishloqda o'zini juda g'arib va tanho his qildi. Bir paytlar xo'jayini uni kichkina yog'och uychada saqlar, har kuni uning yalog'iga mazali yuvindi quyib ketardi. Biroq bu sokin damlar uzoqqa bormadi. Kunlarning birida xo'jayinning uzoqda turadigan o'g'li otasini ko'ch-ko'roni bilan olib ketdi. Otasi ketmoqchi emasdi. Ammo o'g'li hademay urush boshlanishi, qishloqda hech kim qolmasligini aytib, uni arang ko'ndirdi. Xo'jayin ketishdan oldin uyini qulfladi. It o'z xojasidan ayrilishni istamasdi. Ammo bu payt unga kim ham e'tibor berardi.

U qariyani to qishloqdan chiqqunicha kuzatib bordi.

Qishloqdan chiqishda, yovshanzor so'qmoqning boshida xo'jayin uning boshini bag'riga bosdi. Keyin ortiga qaramasdan, uni kutib turgan mashinaga o'tirdi. Mashina ichida ota va o'g'ilning asabiy ohangda gaplashib, tez-tez orqaga qarab qo'yishlaridan gap u haqda borayotganini tushundi. Chamasi, ota itini olib ketishni istar, o'g'li rozi emasdi. Mashina tepalik ortidan chapga burilib ketguniga qadar it egasining ortidan ko'z uzmay turdi. Keyin umidsizlik bilan ortiga qaytdi.

Xo'jayini qishloqning ko'zga ko'ringan odamlaridan biri edi. U ketganidan so'ng qishloq bo'shay boshladi. Kimning shaharda tanish-bilishi, qarindosh-urug'i bo'lsa, hammasi uyini qulflab, qishloqdan jo'nadi. Kechasi dushmanlar kelib, qishloqni o'qqa tutdi. Ba'zida o'q ovozlari ertalabgacha tinmasdi. U g'animlarning qishloq etagiga qadar yaqinlashib kelgani, odamlarni qo'rqitish uchun turli o'yinlar o'ylab topishlarini ko'rib turar, faqat inson tilini bilmagani uchun hech narsa deyolmasdi.

Kuzga yaqin qishloq dushmanning qo'liga o'tdi.

It qishloqni eng oxirida tark etdi. O'q tekkan oyog'ini sudrab, og'riqdan hushini yo'qotar darajada shaharga kirib bordi. U o'z xojasining shaharda ekanini bilardi. Shoyad u meni ko'rib, rahm qilsa, yonidan joy bersa, deb shahar ko'chalarida kechgacha izg'irdi. U shahardagi uylarni qo'riqlash uchun qishloqdagi singari ehtiyoj yo'qligini bilardi. Shunda ham umidini uzmasdi.

Kimdir unga boshpana berishini istardi. Biror bir eshikni sadoqat bilan qo'riqlashni, xizmat qilishni istar, ammo hech kim unga e'tibor bermasdi.

Butun umri shahar ko'chalarida o'z sohibini izlash bilan o'tdi. U o'z xojasi dushman qo'liga o'tgan ona qishlog'ining g'amida kuyib ado bo'lgani, hasrat bilan dunyodan o'tganidan bexabar edi. U

xojasining qabri shahar tashqarisidagi qabristonning bir chetida o't bosib yotganini ham bilmasdi. Necha yildan beri qishloqni dushman qo'lidan qaytarib olish haqida so'z borsa-da, biror natija yo'q edi.

It ham qishloqni sog'inari, uy-joyidan ayrilgan odamlar kabi begona shahar ko'chalarida o'lishni istamasdi. Nihoyat, u qishloqqa qaytishga qaror qildi.

Havoning rangi tobora so'nib borardi. Tog'dan esayotgan yengil shamol o'rmondagi turfa giyohlarning yoqimli hidini olib kelardi. Bu hid unga tanish edi. Har gal xojasining hovlisida, o'z yog'och uychasida mudragan payti burniga ana shu hid urilardi.

Eshik ochiq turardi. Hech kim ko'rinmasdi. Oyoq uchida ichkariladi. Hovli sahnidagi bedazorga kirib, uzandi. Uni bedalar orasidan payqashning imkonini yo'q edi. Shu paytda qulog'iga chalingan ovozdan hushyor tortdi. Boshini panjalari ustidan ko'tarib, orqasiga qayrilganda yelkasiga miltiq osganicha u tarafga kelayotgan soqolli odamni ko'rdi.

Och va madorsiz bo'lishiga qaramay, o'rnidan sapchib turdi-yu, qochishga tushdi.

Soqolli odam begona tilda so'kingancha itning orqasidan yugurdi. It hovlining kungay tarafiga qarab chopdi. Devorning o'sha qismi ancha past, ko'chaga oshib o'tishi oson bo'ladi.

Endi devordan hatlayotganida o'q ovozi varangladi. Itning badaniga iliq bir harorat yoyildi. Uvullaganicha tog' etagiga - o'rmon tomon qochdi. Keyin madorsizlanib, tuproqqa ag'nadi.

Quyosh botayotgandi.

Oqshom quyoshining to'q qizil shafaqlari itning chala yumuq, nursiz ko'zlarida aks etardi. It kuchukchalik davridan o'ziga qadrdon bo'lib qolgan hovlining mo'risidan chiqayotgan oppoq tutun burumlarini so'nggi bor ko'rish uchun boshini tuproqdan ko'tarmoqchi bo'ldi, ammo majoli yetmay, holsizgina cho'zildi...



Ozarbayjonchadan
Rustam JABBOROV tarjimai



YURT POSBONLARIGA

*Sarhadlar tinch, hurligim omon,
Mard harbiylar hushyordir har on,
Yerda, ko'kda tinchlik hukmron,
Sharaf, e'zoz ularga bo'lsin!*

*Ular jasur, go'yo metin saf,
Har qadami zahmat-u sharaf,
Makkor yovni etar bartaraf,
Sharaf, e'zoz ularga bo'lsin!*

*Asli Vatan sherlari ular,
Ehning botir erlari ular,
Qadamidan chaqnaydi yerlar,
Sharaf, e'zoz ularga bo'lsin!*

*Har sinovga yetar saboti,
Ichgan onti uning hayoti,
Yurti asrash chin e'tiqodi,
Sharaf, e'zoz ularga bo'lsin!*



ONAMDAYIN ULUG'

*Vatan tengsiz oshiyonim,
Unib-o'sgan makonim,
Onamdayin ulug'dir,
Otamdayin qutlug'dir.*

*Mo'tabar, aziz so'z bor,
Dillarga bo'lar mador.
Unutmang, u Vatandir,
Insonga jon-u tandir.*

*Usiz hayot ziyosiz,
U tengsiz-u qiyosiz.
Vatan desa yashnar dil,
Vatan bag'ishlar g'urur.*

Diyora FAXRUTDINOVA,
M. Ulug'bek tumanidagi
241-umumta'lim
maktabining 9-sinf o'quvchisi



XALQARO KITOB kunini qanday nishonlaymiz

23-aprel – Butunjahon kitob va mualliflik huquqi kunini qanday taraddud ko'rib nishonlash kerakligi haqida bilasizmi? Menimcha, ko'pchiligingiz bu tadbirlardan boxabar emassiz. Tan olish kerak, yurtimizda Xalqaro kitob kuni nomi bilan mashhur bo'lgan bu bayram BMTga a'zo barcha davlatlar kabi tantanavor nishonlanmaydi.

Biroq siz olamni o'zgartirish qobiliyatiga egasiz. Bu degani, Xalqaro kitob kunini kitoblar olamiga sayr etib, badiiy asarlar mutolaa qilib, o'rganganlaringizni o'rtoqlaringiz bilan bo'lishib, ularni ham bilimlar olamiga yetaklash iqtidori mavjud sizda. To'g'ri, gap bilan bu maslahatni umumiy aytish oson. Lekin biz bu kunni zavqli va foydali o'tkazishingiz uchun kun tartibingizda qiladigan ishlaringiz ro'yxatini tuzib chiqdik.

Siz yashayotgan hududda kutubxonalar bor. Mutolaa qilish uchun esa o'rindiqlar bisyor. Demak, kitobxon do'stlaringizni chaqirasiz-da, ilmlar koshonasi tomon oshiqasiz.

Quruq qo'l bilan borish yaxshi emas, albatta. O'zingiz bilan birga eng sevimli kitobingizni oling. Uni kutubxona, maktab yoki xayriya tashkilotlariga sovg'a qiling. Bu kitobdan olgan taassurotlaringiz va quvonchingizni boshqalarga ulashishning ajoyib usuli.

Do'stlaringizni uyingizda mehmon qiling. O'zaro "Kitobxonlik klubi" tashkil etib, javoningizdagi badiiy xazinadan birgalikda mutolaa qiling. Adabiyotga bo'lgan muhabbatigizni boshqalar bilan baham ko'ring.

Onlayn adabiy tadbirlarda ishtirok eting. Ayni kunlarda bolalar adabiyoti yo'nalishida ijod qilayotgan shoir va yozuvchilar bilim va ko'nikmalarini ulashishdan hormayapti. Siz ham bu jarayonda faol bo'ling!

Mobil qurilmadan to'g'ri foydalanishga odatlaning. Vaqtigingizni havoga sovurmang. Kino, multfilm va klip ko'rguncha bepul elektron kitoblarni yuklab oling.

Badiiy xazina mutolaa qilishda foydali bo'ladigan hunarmandlik ishlari bilan shug'ullaning. Masalan, xatcho'p, lavh yasashga harakat qilib ko'ring. Qo'lingizdan kelishiga amin bo'lmasangiz, bu ishga otangiz yoki buvangizni chorlang. Ishonchim komilki, ular ham bu ishdan zavq oladi.

Kutubxonaga borganingizdan so'ng do'stlaringiz bilan musobaqa uyushtiring. 2-3 soat vaqt davomida necha bet kitob o'qib, qancha bilim orttirganingiz borasida bellashing.

Uyga qaytishda kitob do'koniga kirib o'tishni esdan chiqarmang. Axir hadya qilgan kitobingiz o'rnini yangisi bilan to'ldirish kerak.

Xullas, endi Xalqaro kitob kunidagi rejalarigizdan xabardorsiz. O'ylaymizki, tavsiyalarimizni risoladagidek bajarsangiz, xorijlik tengdoshlaringiz sizga havas qilsa arziydi.

Azim AXTAMOV

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



**SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI**

VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

ko'tiriyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova

Sahifalovchi: Begali Eshonqulov

Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-5737

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 34 704 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya